

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**NIZAMETDINOV NAJMIDDIN G‘ULAMOVICH**

**JANUBIY, JANUBI-SHARQIY VA SHARQIY OSIYO XALQLARI  
QADIMGI TARIXI, DINIY E‘TIQODI VA MADANIYATI**

**07.00.04 – Dinshunoslik**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

UDK:02:003.077(093)(575) «XV/XX»

09(575) «XV/XX»

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract dissertation of the  
Doctor of historical sciences (DSc)**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора исторических наук (DSc)**

**Nizametdinov Najmiddin G‘ulomovich**

Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi,  
diniy e’tiqodi va madaniyati .....3

**Nizametdinov Najmiddin Gulamovich**

The Ancient History, Religion and Culture of the peoples of the South,  
South-East and EastAsia.....51

**Низаметдинов Нажмиддин Гуламович**

Древняя история, религия, культура народов Южной, Юго-Восточной и  
Восточной Азии.....97

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works  
Список опубликованных работ.....103

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**NIZAMETDINOV NAJMIDDIN G‘ULAMOVICH**

**JANUBIY, JANUBI-SHARQIY VA SHARQIY OSIYO XALQLARI  
QADIMGI TARIXI, DINIY E‘TIQODI VA MADANIYATI**

**07.00.04 – Dinshunoslik**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Tar289 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik tadqiqoti O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Tadqiqot avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.iiyu.uz](http://www.iiyu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Rasmiy opponentlar:**

**Hasanov Ahadjon Axmedjanovich**

tarix fanlari doktori, professor

**Karimova Nataliya Ermanovna**

tarix fanlari doktori, professor

**Hamidov Hojiakbar**

tarix fanlari doktori, professor,

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik  
instituti**

Tadqiqot himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_” dekabr soat \_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, E-mail: [info@iiyu.uz](mailto:info@iiyu.uz)).

Tadqiqot bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (142-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel: (99871) 2440091.)

Tadqiqot avtoreferati 2023-yil «\_\_» noyabrda tarqatildi.  
(2023-yil «14» noyabrdagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

**D.R. Maxsudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

**S.A. Rustamiy**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Z.M. Islamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) tadqiqoti annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida XXI asrda yuz bergan iqtisodiy tanazzul davrida jahon sivilizatsiyasida muhim o‘rin tutgan Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mintaqalaridagi davlatlarning taraqqiyotini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor tobora ortib bormoqda. Binobarin, globallashtirish sharoitida mazkur mintaqalar xalqlari bilan tinchlik va taraqqiyotni ta‘minlash, har uch mintaqada davlatlari o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy sohalarda hamkorlik qilish yo‘lida ularning dunyoqarashlari shakllangan milliy tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyatidan boxabar bo‘lish, endilikda tom ma‘noda, kun tartibidagi dolzarb vazifalarning biridir.

Jahondagi ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari va yetakchi universitetlarda Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati yuzasidan keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonning mantiqiy davomi o‘laroq, yangilanayotgan O‘zbekistonda ham yuqorida qayd etilgan mavzu doirasida ilmiy izlanishlar jug‘rofiyasi kengaymoqda. Xususan, «Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati», «Qadimgi Xitoy tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati», «Markaziy Osiyoning Janubiy va Sharqiy Osiyo davlatlari bilan aloqalari tarixi», «Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy va tarixiy manbalari tarjimai» kabi o‘nlab asarlarning yaratilganligi mazkur sohada ildam izlanishlarning amaliy dalili.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda yuqorida keltirilgan mavzu doirasida ilmiy izlanishlar jug‘rofiyasi kengayib bormoqda. Shu bois Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarini yanada mustaxkamlash, xususan «O‘zbekiston-Singapur», «O‘zbekiston-Brunej», «O‘zbekiston-Indoneziya», «O‘zbekiston-Malayziya» va boshqa do‘stlik jamiyatlarini tashkil etilishi tashqi siyosatning mazkur yo‘nalishini o‘rganish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Ilmiy yo‘nalishda esa, «Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati», «Markaziy Osiyoning Janubiy va Sharqiy Osiyo davlatlari bilan aloqalari tarixi», «Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy va tarixiy manbalari tarjimai» kabi asarlarning yaratilgani bu sohada ildam izlanishlar olib borilganini ko‘rsatadi. Shu bois, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyatini yaxlit ilmiy muomalaga kiritilishi O‘zbekistonning ushbu hududdagi mamlakatlar bilan ijtimoiy-ma‘naviy hamda madaniy-ma‘rifiy hamkorlik istiqbolini belgilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, ushbu tadqiqot ishi muayyan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning mamlakat fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>1</sup>.** Qadimdan Sharq va G‘arb olimlari olib borgan har uch mintaqa xalqlari tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyatiga doir izlanishlar hozirda ham o‘z ilmiy mohiyatini yo‘qotmagan. Bu boradagi xorijiy tadqiqotlarni quyidagi ilmiy markazlar, oliygohlar hamda davlat va nodavlat tashkilotlari, jumladan: Stanford University USA – Center for South Asia; University of Cantburry – New Zeland South Asia Center; Center for South Asian Studies – University of Wisconsin at Madison; Center for Southeast Asian Studies – University of Michigan (AQSH), South Asia Center –University of Washington (AQSH), Rossiya Fanlar Akademiyasi institutlari, Royal Netherlands Institute of Southeast Asian and Caribbean Studies (Gollandiya), Korean Oversease Information Service (Koreya), Center for Japanese Studies (Yaponiya), Georg Washigton University (AQSH), Cambridge University (AQSH), Antique Collector’s Club (XXR), A global Studies Handbook (Indoneziya), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Patel Memorial Lectures Vroadcast (Hindiston), Raja Yoga Centyer in Australia (Avstraliya), Brahma Kumaris World Spiritual University (Hindiston), International Relations of South Asia (AQSH), Program for Southeast Asian Studies – Arizona State University (AQSH), Asian Studies – Northern Illinois University (Dekalb), International Encyclopedia of the Social Sciences (AQSH) va shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston milliy universitetida olib borilmoqda.

Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyatini o‘rganishiga oid jahon ilmiy markazlarida bugungi kunda quyidagi ilmiy natijalar olingan: Qadimdan indonezlarning Hindiston bilan mavjud bo‘lgan aloqalari tufayli bu yerga dastlab hinduizm, so‘ng buddizm kirib kelib mahalliy madaniyatga katta ta’sir ko‘rsatgani, IX asrga kelib esa, dengiz va quruqlikda savdo-sotiq ishlarida muvaffaqiyatga erishishi natijasida Indoneziyaning dunyo buddizm markaziga aylangani isbotlangan (Stanford University USA – Center for South Asia), VIII asrdagi «Hind yurishi» (**भारतीय अ भयान**)dan so‘ng Brahmaguptaning astronomiyaga oid «Brahmasiddhanta» (**ब्रह्मसिद्धांत**),

---

<sup>1</sup> Tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.events.stanford.edu>; <https://www.canterbury.ac.nz>; <https://www.southasia.wisc.edu>; <https://www.ii.umich.edu>; <https://www.jsis.washington.edu>; <https://www.ras.ru>; <https://www.kitlv.nl>; <https://www.kocis.go.kr>; <https://ii.umich.edu>; <https://www.gwu.edu>; <https://www.cam.ac.uk>; <https://antiquecollectorsclub.com>; <https://www.ox.ac.uk>; <https://shprs.asu.edu>; <https://www.niu.edu>; <https://www.emerald.com>.

«Khandayaka» (खंडायका) asarlari va boshqa hind ilmiy manbalari arab tiliga tarjima qilinib Bagʻdod va Damashqda hind olimlarining ilmiy maʼruzalar oʻqiganliklari, yoglarning musulmon talabalari bilan munozaralar qilganliklari hamda bixarli Premukhaning arab xalifaligida Bosh vazir lavozimida boʻlganligi dalillangan (South Asia Center –University of Washington), Malayziya va Indoneziya aholisi islom dinini oʻrta asrlarda musulmon-arab savdogarlari orqali dengiz sohilidagi yashovchi hindistonliklarni «*mapilla*» (म पल्ला), yaʼni «yaxshi yigitlar» deb ataganliklari aniqlangan (Center for South Asian Studies – University of Wisconsin at Madison), Veda taronalari (वैदिक शास्त्र) kitobini saqlab qolishga boʻlgan harakat natijasida bundan V ming yil muqaddam Vedani birinchi bor Vyasadeva oxirzamon odamlari uchun yozma shaklga keltirilganligi isbotlangan (Program for Southeast Asian Studies – Arizona State University), milodiy I asrdan Budda tasviri tosh butlarda mujassamlanib, ilohiylashtirilgani dalillangan (Center for Southeast Asian Studies – University of Michigan).

Jahonda har uch mintaqa xalqlarining tarixi boʻyicha bir qator, shu jumladan quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: uch mintaqa xalqlarining qadimgi tarixini tahlili; oʻrta asrlarda musulmon-arab savdogarlarining Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo hududlarida faoliyatini aniqlash; yuqorida keltirilgan hududlarida Buddizmni kirib kelish bosqichlari; uch mintaqa xalqlarining madaniyatini rivojlanishiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlar qadimgi tarixi, diniy eʼtiqodi va madaniyatini oʻrganishga oid manbalar va adabiyotlarni quyidagi toʻrt guruhga ajratish mumkin:

*birinchi guruhga* Sharq olimlarining tarix, etnografiya, diniy eʼtiqod va madaniyatga oid tadqiqoti, xususan Abu Rayhon Beruniyning «al-Osor al-boqiya» va «Hindiston», Shahrisoniyning «Kitab al-milal va-n-nihal»; XI asrda Gʻaznaviylar saroyida yaratilgan «Dinlar haqida kitob», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Muhammad Mustaidxon Soqiyning «Maʼosiri Olamgiri» kabi asarlari kiradi;

*ikkinchi guruhga* Gʻarb muarrirlari va dinshunoslarining Sharq tarixi, diniy-falsafiy taʼlimotlari hamda madaniyati mavzuidagi quyidagi asarlari kiradi: Dj.S. Trimengen «Суфийские ордена в исламе», V.Djems «Многообразие религиозного опыта», E.Uilyam «Bobur Hindistonda», Aleksandr Men «История религии: в поисках пути, истины и жизни», V. Butromeyev «Мудрость Конфуций», C.L. Grossman «Decorative Arts of the China Trade», Colin Brawn. «A short history of Indonesia», Michel J.Seth. «A short history of Korea»<sup>2</sup>;

*uchinchi guruhga* sobiq ittifoq sharqshunos olimlarining Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy eʼtiqodi va madaniyatiga

---

<sup>2</sup> Трименген Дж. С. Суфийские ордена в исламе. – М.: Наука, 1989; Джемс В. Многообразие религиозного опыта. (СПб) 1993; Уильям Э. «Бобур Хиндистонда» (Ф.Сотимов таржимаси) – Т.: Чўлпон, 1995; Александр Менъ. История религии: в поисках пути, истины и жизни. – М.: 2001; Бутромеев В. Мудрость Конфуций. – М.: Доно Мэдиа Групп. – М., 2010; Grossman C.L. Decorative Arts of the China Trade. Suffolk, Antique Collector's Club. 1991; Colin Brawn. A short history of Indonesia. Printed by Soyth Wind Production, Singapore. 2003. Michel J.Seth. A short history of Korea. Printed in the USA in 1992.

doir yoʻnalishlardagi V.V.Bartold U.E.Bertels, V.I.Avdeyev, N.L.Jukovskiy, I.D.Serebryakov, L.S.Vasilyev, A.I.Kobzev<sup>3</sup> ilmiy tadqiqot ishlari kiradi;

*toʻrtinchi guruhga oʻzbekistonlik olimlarning Hindiston, Xitoy, Yaponiya va Koreya tarixi, madaniyati, sanʼati hamda badiiyatiga bagʻishlangan «Oʻrta Osiyoning chet el Sharqi bilan munosabatlari», «Очерки истории культурных связей Средней Азии и Индии в XV-XX в.», «Китайский фактор в Центральной Азии», «Корея тарихи», «Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников)», «Qadimgi Hindiston tarixi, diniy eʼtiqodi va madaniyati», «Indo-Uzbek Literary Linkages»<sup>4</sup> kabi asarlari kiradi.*

**Tadqiqot bajarilgan oliy taʼlim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Tadqiqot Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-202002145 «Dinlar tarixi, taʼlimoti, manbalari va anʼanalarini tadqiq etish asosida «Dunyo dinlari» elektron dasturi va mobil ilovasini yaratish» mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi, diniy eʼtiqodi va madaniyatini jahon sivilizatsiyasida tutgan oʻrnini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot doirasiga oid birinchi yoʻnalish boʻyicha, mintaqalardagi ilk milliy davlatlarning paydo boʻlishi, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va madaniy hayoti asoslarini yoritib berish;

tadqiqot doirasiga oid ikkinchi yoʻnalish boʻyicha, mintaqalardagi mifologik va diniy eʼtiqodlar tarixi hamda ularda talqin etilgan diniy-dunyoviy masalalar mazmuni va mohiyatini tahlil asosida koʻrsatib berish;

tadqiqotning uchinchi yoʻnalishida har uch mintaqaga kirib kelgan xristianlik va islom kabi xorijiy diniy eʼtiqodlarning muayyan darajada mahalliy muhitdagi oʻzlashuv jarayoni hamda ularning tarixiga davriy aniqlik kiritish;

tadqiqot doirasiga oid toʻrtinchi yoʻnalish boʻyicha, mahalliy xalqlarning xorijiy sivilizatsiya unsurlari yoʻgʻrilgan milliy madaniyatlariga xos xususiyatlarini ochib berish;

tadqiqot doirasiga oid har toʻrt yoʻnalishdagi Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyodagi davlatlarning jugʻrofiy hududi, aholisi, davlat tili hamda ularning iqtisodiyoti haqidagi maʼlumotlar yuzasidan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

---

<sup>3</sup> Васильев Л.С. Истоки китайской цивилизации. – М.: Восточная литература, 1998; Введение в Буддизм. Санкт-Петербург, 1999; Бертельс У.Э. Избранные труды /Суфизм и суфийская литература/. – М.: Наука, 1965; Бартольд В.В. Работы по истории ислама и арабского халифата. IV т. – М.: Наука, 1966, История древнего Востока. – М.: Высшая школа, 1972; Буддийский культовый центр Кара-Тепе в старом Термезе. – М.: Наука, 1972; Жуковский Н.Л. Ламаизм и ранние формы религии. – М.: Наука, 1977; История древнего мира. Ранняя древность. Гл. изд.вост. лит. – М. 1983; История стран зарубежной Азии в средние века. – М.: Наука, 1970; Кобзев А.И. Проблемы природы человека в конфуцианстве. – М.: 1983.

<sup>4</sup> Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари. – Т.: Ўздавнашр, 1961; 2006; Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл Шарқи билан муносабатлари. – Т.: Ўздавнашр, 1961; Абдуҳолик Абдурасул ўғли. Чин ва Мочин. – Т.: Фан, 2006; Аблат Ходжаев. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). Изд. – Т.: Тафаккур, 2010; Низомиддинов Н. Қадимги Ҳиндистон тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. – Т.: Fan va tehnologiyalar, 2014; Khojaeva T.A. Indo-Uzbek Literary Linkages. Tashkent State University of Oriental Studies. 2022.

**Tadqiqotning obyekti** Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati.

**Tadqiqotning predmeti** Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, madaniyati hamda ushbu mintaqalarda tarqalgan diniy e'tiqodlar qiyosiy tahlili.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur tadqiqotning uslubiy asosi qamrovidagi mavzular talqinida tizimlilik, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, mavjud muammoli masalalarga real yondashuv hamda ularga taalluqli adabiyotlar va manbalardan tipologik va kompleks tarzda foydalanish ko'zda tutilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligini** quyidagilar:

hinduizmning muqaddas manbai «Veda taronalari» (वैदिक शास्त्र) dastlab og'zaki tarzda jamlanganligi, biroq kitobat (الكتابة) ilmining rivojlanishi «inson xotirasining kuchsizligi» tufayli manbani saqlab qolishga bo'lgan harakat natijasida bundan V ming yil muqaddam Vedani birinchi bor «Vyasadeva» (व्यासदेव) oxirzamon odamlari uchun yozma shaklga keltirilganligi aniqlangan;

o'rta asr musulmon-arab savdogarlaridagi to'g'rilik (الصدقة), mahalliy urf-odatlar va an'analarga bo'lgan e'tibor hamda iliq muomala-munosabatlari sababli Malayziya va Indoneziya aholisi islomni oson qabul qilganliklari hamda hind dengizi sohili mintaqasidagi hindlarning ularni o'z tillarida «mapilla» (म पल्ला — «yaxshi yigitlar») deb ataganliklari ochib berilgan;

VIII asrdagi «Hind yurishi» (भारतीय अ भयान)dan keyin arablarning hind ilm-fani erishgan muvaffaqiyatlarga qiziqishi natijasida Brahmaguptaning astronomiyaga oid «Brahmasiddhanta» (ब्रह्मसिद्धांत), «Khandayaka» (खंडायका) asarlari va boshqa hind ilmiy manbalari arab tiliga tarjima qilinganligi, Bag'dod va Damashqda hind olimlarining ilmiy ma'ruzalar o'qiganliklari, yoglarning musulmon talabalari bilan munozaralar qilganliklari hamda Bixarli Premmukhaning arab xalifaligida Bosh vazir lavozimida xizmat qilganligi aniqlangan;

qadimdan indonezionaliklarning Hindiston bilan mavjud bo'lgan aloqalari tufayli bu yerga dastlab hinduizm, so'ng buddizm kirib kelib mahalliy madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgani hamda keyinchalik IX asrga kelib, dengiz va quruqlikda savdo-sotiq ishlarida muvaffaqiyatga erishishi natijasida Indoneziyaning Janubi-Sharqiy va hatto dunyo buddizm markaziga aylangani ochib berilgan;

konfutsiylik va daosizm diniy ta'limotlarining koreys va yapon sarzaminida tarqalishi sabablari mazkur mintaqa xalqlarining ma'naviy va ijtimoiy mushtarak dunyoqarashlari o'tmish ajdodlar ruhiga e'zozli munosabatlar zamirida ta'riflanganligi ochib berilgan;

tadqiqotda Hindiston sarhadi osha I asrda Xitoy, IV asrda Koreya va VI asrda esa Yaponiya hududida tarqalgan buddizmning «Chan buddizmi» (禪宗), «Son buddizmi» (ドリームブツディシム) va «Dzen buddizmi» (선불교) kabi yangi talqinlarining shakllanishida Sharqiy Osiyo xalqlari milliy mentaliteti xususiyatlari muhim o'rin egallaganligi aniqlangan;

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mintaqalaridagi davlatlarning qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati Sharq olimlarining tarix, dinshunoslik va madaniyatga oid asarlaridagi tadqiq usullar asosida ochib berilgan;

G'arb mutaxassislari tadqiqoti natijalarini mavzuga doir tarixiy va diniy voqeliklarni kengroq yoritishda va kelgusi ilmiy tadqiqotlar uchun yangi manbalarni to'plashda muhim o'rin tutishi aniqlangan;

bir ildizdan tarqalgan turli hind dini va ta'limotlarining eng yirik umumlashmasi bo'lgan hinduizmning kelib chiqish tarixi bo'yicha dinshunoslikda ikki omilga urg'u berilishi – monoteistik tafakkurning kuchayishi va shuningdek, «*Darshan*» – «olti falsafiy ta'limot»ning o'z ustuvorlik mohiyatini saqlab qolganligi, tadqiqotda asl hind tafsiriy manbalari talqinida ifodalanganligi ochib berilgan;

indonezlar va malaylarning jug'rofiy hududiga xos turfa tabiiy shart-sharoitlarning milliy davlatchilik tizimini tuzishdagi murakkabliklariga e'tibor qaratilib, bu boradagi masalaning yechimida har ikki xalqning o'z sharoitida qo'llagan omillari qiyosiy tahlil qilingan;

Sharqiy Osiyodagi neolit davriga doir guruhlarining o'zaro assimilyatsiyasi tufayli «koreyslar» deb ataluvchi bronza davri etnik jamoalari tashkil topganligi tarixiy voqeliklar asnosida dalillangan;

yaponlarning mo'g'ullar, xususan Xubilayxon qo'shinlarining har uch hujumidagi dushmanga qarshi kurashida o'z mustaqilligi va diniy hamda dunyoviy qadriyatlariga bo'lgan sadoqati ruhiyati tadqiqotda tarixiy faktlar zahirida ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va risolalardagi xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda o'z aksini topgan fikr va mulohazalardan, bildirilgan taklif va tavsiyalardan, tadqiqotning ilmiy natijalaridan uch mintaq xalqlarining tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati mavzusida ta'lim muassasalarida Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati tarixiga doir yangi ilmiy tadqiqotlar uchun manbalarga asoslangan ma'lumotlarni taqdim etish, hali ochilmay qolgan tarixiy jarayonlarni asoslashda muhim o'rin tutishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarixiy bilimlarni rivojlantirishga, dinshunoslik, etnografiya, manbashunoslikka oid darslik va kitoblar tayyorlashda foydalanish mumkinligi, shu jumladan ilmiy tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlardan kelajakda «Dinshunoslik», «Qiyosiy dinshunoslik», «Dunyo dinlar tarixi» sohalari bo'yicha olib boriladigan izlanishlar, oliy o'quv yurtlari uchun maxsus kurslar bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar, kitoblar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyatiga oid ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Hinduizmning muqaddas manbai «Veda taronalari» (वैदिक शास्त्र) dastlab og'zaki tarzda jamlanganligi, biroq kitobat (الكتابة) ilmining rivojlanishi «inson xotirasining kuchsizligi» va manbani saqlab qolishga bo'lgan harakat natijasida bundan V ming yil muqaddam Vedani birinchi bor «Vyasadeva» (व्यासदेव) oxirzamon odamlari uchun yozma shaklga keltirilganligi haqidagi ilmiy xulosalar «Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati» nomli kitobga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazining 09.03.2023 yildagi 08-17/213-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari uchun Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati mavzularini yoritish uchun qo'shimcha manba bo'lishiga xizmat qilgan;

o'rta asr musulmon-arab savdogarlaridagi to'g'rilik (الصدقة), mahalliy urf-odatlar va an'nalarga bo'lgan e'tibor hamda iliq muomala-munosabatlari sababli Malayziya va Indoneziya aholisi islomni oson qabul qilganliklari hamda dengiz sohili mintaqasidagi hindlarning ularni o'z tillarida «*mapilla*» (म पल्ला), ya'ni «yaxshi yigitlar» deb ataganliklari haqidagi ilmiy qarashlar «Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlar va islom» nomli kitob mazmuniga singdirilgan (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 23.03.2023 yildagi № 02/122-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy-tadqiqot muassasalari talabalari uchun Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlar va islom mavzuida ma'ruzalar majmuiga qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilgan;

buddizm ta'limotida iloh masalasiga asosiy e'tibor qaratilmagan va Buddaning o'zi garchi «butun dunyo ilohni tan olgach, men ham e'tirof etaman va u haq» degan bo'lsa-da, biroq Yaratuvchi haqidagi qarashlar ushbu ta'limotda shakllanmaganligi sababli milodiy I asrdan Buddaning o'zi tosh butlarda ilohiylashtirilgani har qanday dinlarda Iloh timsoli bo'lishi kerakligi to'g'risidagi ilmiy qarshlar «Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari» kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston teleradiokanali» davlat muassasining 22.05.2023 yildagi № 06-49-312-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning buddaviylik ta'limoti mohiyatini kengroq tushunishlariga yordam bergan;

VIII asrdagi «Hind yurishi» (भारतीय अ भयान)dan keyin arablarning hind ilm-fani erishgan muvaffaqiyatlarga qiziqishi natijasida, Brahmaguptaning astronomiyaga oid «Brahmasiddhanta» (ब्रह्मसिद्धांत), «Khandayaka» (खंडायका) asarlari va boshqa hind ilmiy manbalari arab tiliga tarjima qilinganligi, Bag'dod va Damashqda hind olimlarining ilmiy ma'ruzalar o'qiganliklari, yoglarning musulmon talabalari bilan munozaralar qilganliklari hamda Bixarli Premmukhaning arab xalifaligida Bosh vazir lavozimida xizmat qilganligi haqidagi ilmiy xulosalar «Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyoda islom tarixi» kitobda foydalanilgan

(Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 23.03.2023 yildagi № 02/122-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilar hind-musumon munosabatlari tarixiga doir ma'lumotlar bilan kengroq tanishishlariga xizmat qilgan;

qadimdan indonezlarning Hindiston bilan mavjud bo'lgan aloqalari tufayli bu yerga dastlab hinduizm, so'ng buddizm kirib kelib mahalliy madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgani, IX asrga kelib esa, dengiz va quruqlikda savdo-sotiq ishlarida muvaffaqiyatga erishishi natijasida Indoneziyaning Janubiy-Sharqiy va hatto dunyo buddizm markaziga aylangani haqida ma'lumotlar «Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati» kitobida foydalanilgan (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 23.03.2023 yildagi № 02/122-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur mintaqalarga islomning kirib borishi haqidagi ma'lumotlarning aniqlanishiga yordam bergan;

Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlarining diniy e'tiqodlariga qadimdan Veda va zardushtiylik diniy ta'limotlari katta ta'sir ko'rsatganligi bois aholi orasida Vedizm va zardushtiylikka oid ilohlar nomi, jannat, do'zax, olov kulti, qurbonliklar jarayoni singib ketganligi to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar «Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy va tarixiy manbalari tarjimasini» kitobida foydalanilgan (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 23.03.2023 yildagi № 02/122-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilar Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlarining diniy e'tiqodlari haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishlariga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlardagi ma'ruzalarda muhokama qilinib, sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan, 11 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. 2 ta xalqaro va 1 ta respublika anjuman to'plamlarida tezislar e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Tadqiqot tarkibi kirish, 4 yo'nalish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 2500 sahifadan iborat.

## TADQIQOTNING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida uning dolzarbligi va zarurati, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalarning ahamiyati, ishonchliligi hamda xorijiy tadqiqotlarning sharhi va shuningdek, nashr etilgan maqolalar va monografiyalarining tarkibiy tuzilishi bo'yicha tegishli ma'lumotlar berilgan.

**Tadqiqotning birinchi yo‘nalishi «Janubiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati»** deb nomlanib, unda Hindiston, Shri Lanka, Nepal va Butan xalqlarining qadimgi tarixi, diniy-madaniy qadriyatlarini tahlili va tadqiqi o‘rin olgan.

1.1-§. Hindiston. O‘zbek va hind xalqlarining uzoq tarixga ega o‘zaro aloqalari azaldan ilmda o‘z isbot-dalilini topganligi yoritilgan. Jumladan, hali «buddizm davriga oid *«Jataki»* to‘plamida Rim, Yunon va boshqa Yevropa mamlakatlariga qatnaydigan hind hamda xitoy savdo karvonlari yo‘lida O‘rta Osiyo hududining jug‘rofiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga egaligi qayd etilgan edi. Yoki Strabondan qolgan xabarga ko‘ra, O‘rta Osiyodagi Oks – Amudaryo hind mollarini Kaspiy va Qora dengiz orqali Yevropaga olib chiqishda Sharq va G‘arb savdo zanjirining asosiy halqalaridan biri hisoblangan. Kushon hamda eftalitlar davrida esa, har ikki mintaqada o‘rtasidagi munosabatlar asta-sekin madaniy-ma‘rifiy tus ola boshlagan».

Lekin bu borada shuni ham unutmaslik kerakki, hindlar bilan turli jabhalarda azaldan mavjud bo‘lgan rishtalar – bu aslida masalaning faqat bir tomoni. Uning bundan-da muhimroq ikkinchi tomoni, hind diyorida islomning qaror topganidan keyingi hamkorligimiz samaralari bo‘lib, ularning shakllanish jarayoni quyidagi tarixiy voqealiklar asosida kechgan:

1. Abu Rayhon Beruniyning o‘zbek hindshunosligi tamal toshini qo‘ygan olim sifatida Hindistondagi ilmiy-ijodiy faoliyati.

2. Chingizxonning O‘rta Osiyoga yurishi arafasida va undan keyin movarounnahrlik din, ilm-fan va adabiyot namoyandalarining hindlar yurtida panoh topganligi.

3. Boburiylarning bag‘rikenglik ruhida ichki va tashqi siyosati sharofati bilan mahalliy hukmron sulola sifatida Hindiston tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati.

Yuqorida zikr etilgan Hindiston va O‘rta Osiyo munosabatlari tarixiga qisqa ekskursdan so‘ng tadqiqotda qadimgi hind tarixiga doir quyidagi masalalar o‘rin olgan. Ya‘ni dunyoning yaratilishi va uning boshqaruv tamoyillaridan tortib, to hindlarning e‘tiqod talab-taqozolariga munosib hayoti, faoliyati va jamiyatda tutgan o‘rni tafsiloti ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Bu yo‘nalishda shuningdek, Xarappa va Moxenjo-Daro kabi qadimgi hind madaniyat o‘chog‘larining umumjahon sivilizatsiyasida Misr va Shumer markazlaridan keyingi uchinchi muhim obyekt ekanligi ta‘kidlangan. Sivilizatsiya masalasida tadqiqotda shuningdek, Ariya – oriylarning Hindistonga yurishi va ular madaniyatiga qiyosan qadimgi hind madaniyatining ta‘lim va tahsil xususidagi ustuvor jihatlari urg‘ulangan. Shuningdek, tadqiqotda oriylar yurishidan keyin shakllangan hind jamiyatidagi tabaqa tizimi va uning hind jamiyatidagi mohiyati sabab-oqibatlarini ham bayon etilgan.

Tadqiqot tarkibida Hind davlatchilik tarixiga alohida e‘tibor qaratilgan. Chunki «Mahabharata» epik dostonidan ibtido olgan hind davlatchilik tizimi ta‘rifi ya‘ni: *«Garchi birinchi bor davlat «kritayug» davrida shakl topgan bo‘lsa ham, ammo unda podsho, hukmronlik va jazolash kabi tushunchalar bo‘lmagan. Va odamlar*

*bir-birlarini «dharma» – e'tiqod asosida eng haqqoniy yo'l bilan himoya qilgan»ligi, hamon mahalliy va xori-jiy muarrixlar diqqat markazida. Chunki hind sarzaminidagi shakya, yadov, kaliya kabi ilk qabilaviy davlatlar o'rnini egallagan Kashi, Koshala, Vrijis davlatlaridan so'ng paydo bo'lgan Magadha, Nandalar, Mauriylar va Kushonlar saltanati hind dalatchiligi tarixida o'chmas iz qoldirgan. Mazkur hind davlatchiligi taraqqiyotining barcha pog'onalarida «Artxshastr» – «tajribali hayot ilmi» manbai asos bo'lgan. Ammo mavjud tizim silsilasidan farqli o'laroq, Hindistonda musulmon yurishlaridan keyingi shakllangan davlatchilik tizimi o'z islomiy tamoyillari bilan farqlangan. Jumladan, VIII asrda Muhammad ibn Qosim boshchiligidagi arablar va X asrdan g'aznaviylarning «hind yurishlari» yoki XIII-XIV asrlardagi Dehli sultonligi va nihoyat, XVI asrning birinchi yarmida Buyuk boburiylar markazlashgan davlatiga asos solinishi fikrimizning tarixiy tasdig'i desak, xato bo'lmas.*

Hind davlatchilik tarixi haqida so'z yuritganda, yevropaliklarning dastlab savdo-tijorat niqobidagi Hindistonga «tashrifi» to'g'risida ham to'xtalish kerak. Chunki XV asrning so'ngi choragi oxirida Malabarning Kalikut bandargohiga tushgan portugallar hind bozori mollarini ko'rishlari bilan u yerdan nimalarni Yevropaga olib chiqib ketilishi kerakligini rejalashtirgan edilar. Bu fikrning to'g'riligiga G.Xart risolasidagi portugal tilidan xabardor arabning quyidagi suyunch va xayajon to'la so'zlarini misol keltirish mumkin:

«Omad keldi, omad! Yoqutu zumradning ko'pligini qarang! Bizni bunday boylıklar bor yerga yetkazgan Allohga hamdu sanolar ayting!».

Majozan ta'riflaganda, yevropaliklar uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan boylıklarni o'zlariga qulay joyda saqlab, so'ng ularni o'z vaqtida kemalarga ortishlari uchun Goa kabi bandargoh kerak edi. Buni Portugaliya qaramog'idagi yerlarning gubernatori yozib qoldirgan ma'lumoti tasdiqlaydi:

«Goani tasarrufga olmasdan turib, Portugaliyaning Sharqdagi zabt etilgan yerlarini saqlab qolinishi dargumon»<sup>5</sup>.

Qariyb bir asrdan ortiq Hindistonning janubiy qirg'oqlarida o'z tasarrufi va savdo ishlarini rivojlantirgan portugallarga XVII asrning boshlanishi ularning Yevropa bozorlaridagi savdo-iqtisodiy manfaatlari uchun muvaffaqiyatsiz kelgan. Chunki Hindiston dengiz yo'lida golland va ingliz kemalarining paydo bo'lishi portugallar uchun bemubolag'a bamisoli «tomoqqa tiqilgan suyak» edi. Va ayni davrda manufaktura – tor mutaxassislik va mehnat qurollari texnikasi asosida ishlab chiqarish uslubi yaxshi yo'lga qo'yilgan Buyuk Britaniyada dengiz kemalari va qurol-yarog'lar sifati portugal dengiz kuchlariga qaraganda ancha yuqori bo'lib, suv yo'llarida ingliz kemalarining qatnovi ham juda jadal va samarali edi. Shu bois oldin portugal, keyin golland va fransuzlarga ham o'z maqsadlariga tugal erishish nasib etmadi. Qolaversa, Jahongirning inglizlarga saltanat hududida erkin savdo qilish haqidagi bergan farmoni ham, yuqorida aytganimizdek, aslida o'sha vaqtdayoq portugallar mavqeini sindirishga qaratilgan edi. Holbuki, Hindistonning birin-ketin Portugaliya, Gollandiya, Buyuk Britaniya va Fransiya manufakturalari majmuiga ipsiz bog'lanishi boburiylar davlatchiligi tizimining avval iqtisodiy, so'ng ijimoiy-

<sup>5</sup> Антонова К.А. Английское завоевание Индии в XVIII веке. – М.: Наука, 1987. – С.35.

siyosiy jihatdan yemirilish jarayonini jadallashtirdi. Sababi, yevropalik ishbilarmon shirkatlar o'z ibtidosidan nafaqat iqtisodiy manfaatni, balki shuningdek, harbiy strategik maqsadlarni ham ko'zda tutib ish yuritgan edilar. Yevropaliklar uchun mazkur maqsadga erishish yo'lidagi eng muhim omil, bu – hindlar va musulmonlar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishdan iborat edi.

Xullas, tarixan g'oyat qisqa bir muddatda oyoqqa turib ulgurgan Buyuk boburiylarning o'z markazlashgan davlatida joriy etgan baynalmilal siyosati saltanat qudrati uchun xizmat qilgan bo'lsa, so'ngi o'tgan yarim asr ichida yevropaliklar bois yuritilgan tobelik siyosati muqaddam mavjud «hind va musulmonlar o'rtasidagi «begonalik pardasi» o'rnida «hind-musulmon muammosi devori»ni paydo qildi. Majoziy ma'nodagi «begonalik pardasi va devori»ning yuzaga kelishi, hinduizm va islom dunyoqarashlari o'rtasidagi mavjud farqlanishlarni ijtimoiy hayotda o'zaro ziddiyat vositasiga aylantirdi. Vaholanki, mamlakatda muqaddam xorijiy dinlar vakilariga bo'lgan munosib munosabat, hinduizmning bag'rikenglik ruhiyati sharofatidan edi.

Agar bu masalaga tarixiy nuqtai nazardan yondashsak, dunyoga «hinduizm» nomi bilan tanilgan din insoniyatning eng qadimiy e'tiqodlaridan biri hisoblanadi. Rasman fanda Veda davridan boshlangan hinduparastlikning faqat so'ngi bosqichigina «hinduizm» atamasi bilan ma'lum. Aslida hind dinining ilk nomi «*varnashrama*» bo'lib, bu atama mazmunan hind jamiyatining ma'naviy va ijtimoiy jihatdan to'rt tabaqaga bo'linishini bildiradi. Qadimdan Hindistonda tabaqa tizimi tufayli yuzaga chiqqan diniy-ijtimoiy munosabatlarning jamiyatda chuqur ildiz otganligining sababi ham shunda. Davrlar o'tishi bilan vedizm va mahalliy aborigen kulturlarining bir-biriga moslashuvi miloddan avvalgi birinchi mingyillikdan Hindistonda brahmanizm davrini boshlab berdi.

Miloddan avvalgi V asrdan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va uning oqibati talab-taqozolari vedizm va brahmanizm g'oyalaridan farqli ravishda jaynizm va buddizm kabi noortodoksial ta'limotlarni yuzaga chiqishiga olib keldi. Garchi yangi diniy ta'limotlar o'zga mahalliy e'tiqodlarga nisbatan nomuxolif va erkin munosabat targ'iboti bilan tabaqa tizimini inkor etgan bo'lsa-da, ammo ularning ruh mavjudligi masalasida o'zaro farqli jihatlari ham bor edi. Xususan, ruh borligi ta'kidlangan jaynizmga nisbatan buddizmda ruh mavjudligi e'tirof etilmagan. Xuddi shu kabi farqlanishlar bois tadqiqotda nima sababdan jaynizm tarqalgan hududning cheklanganligi va buddizmning esa, o'z vatanidan farqli o'laroq dunyo miqyosida keng tarqalishi sabablari alohida tahlil etilgan.

Miloddan avvalgi birinchi mingyillikning yarmidan paydo bo'lgan jaynizm va buddizm tarixi haqida so'z yuritganda, miloddan avvalgi IV asrda «Patanjali» asos solingan yoga-shastr hamda XII va XIV asrlardagi bhaktiy diniy-falsafiy ta'limotlariga xos g'oyaviy tamoyillarni ham unutmazlik kerak. Chunki yoga ta'limoti mazmunan insonda mavjud aqliy, ruhiy va jismoniy potentsiallarni kashf etishga va ulardan foydalanishga undaga bo'lsa, bhaktizm esa, insonga muhabbat va Tangriga sadoqat kabi g'oyalarni ilgari surgan. Kezi kelganda yana shuni ham unutmazlik keraki, bhaktiy falsafasi ta'limoti Hindistondagi eng so'ngi sikhizm diniy e'tiqodining paydo bo'lishida g'oyaviy asos vazifasini o'tagan. Shu asnoda

mahalliy va xorijiy teologlar fikricha, vedalar davridan to so'ngi diniy e'tiqod sikhizmga qadar o'tgan davrlar ichida VIII asrdan umummilliy diniy e'tiqod mavqeiga ko'tarilgan hinduizmga xos bag'rikenglik ruhiyati sharoitida, Hindistonga xristianlik va islom diniy e'tiqodlari kirib kelgan.

Arablarning Hindistonga yurishi tarixi ilmiy izlanishlarda davriy va jug'rofiy jihatdan turli sana va hududlar asosida qayd qilingan. Va bu o'lkada islomning o'zlashuvi, agar bir tomondan, arab savdogarlarining muttasil safarlari davrida mahalliy aholi orasida qozongan obro'-e'tiboridan ko'rilsa, ikkinchi tomondan, savdogarlar safida bu yerga kelgan so'fiylarning bag'rikenglik ruhiyati sharofatidan deb baholangan. Shu boisdan tadqiqotda «Hind tasavvufi» mavzui imkon qadar qamrovli tadqiq qilingan.

Sirasini aytganda, arablarning islomga qadar bo'lgan e'tiqodi darajasi hindlardan qolishmasdi. Lekin ikki turli millat va diniy e'tiqod kishilarining savdo jarayonida paydo bo'lgan xolis va do'stona aloqalarining kuchayishi, avvalo islomiy mafkuraning etik va estetik asoslari sharofatidan edi. Shu bilan bir qatorda Allohning nazarida nasliy, ijtimoiy va milliy jihatdan barcha bandalarining barobarligi, hind jamiyatining qon-qoniga singib ketgan tabaqa tizimi qonunlari hukm surgan joyda, albatta, avom e'tiborini tortgan. Boz ustiga, brahmanlar tomonidan quyi tabaqa vakillariga ibodatxolarlarda sig'inish man etilgan bir jamiyatda musulmonlar masjidi eshigining barchaga barobar ochiqligi, yangi dinning targ'iboti uchun eng oshkora va ommabop vosita edi. Bu vosita shuningdek, hind-musulmon ijodkorlariga madaniyat va ma'rifat sohalarida ijod etishga kyeng yo'l ochib bergan edi.

Shu sharoitda Hindiston madaniy-ma'rifiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar oxir-oqibatda «Hind-musulmon madaniyati»ning vujudga kelishiga olib keldi. Mahatma Gandi ta'rifidagi «bir xalq – ikki e'tiqod» vakillari ijodiy hosilasi bo'lgan bu yangi madaniyat o'z mazmun-mohiyati bilan hamon ilm-fanda o'z mavqeini yo'qotgani yo'q. Davrlar o'tishi bilan hatto dunyo sivilizatsiyasi tarkibiga yo'g'rilib ulgurgan «Hind-musulmon madaniyati» tarixi ibtidosiga nazar solsak, ma'lum bo'lishicha, uning vujudga kelishida ba'zi muammoli masalalar mavjudligini ko'rish mumkin. Chunki «Hind-musulmon madaniyati» qobig'ida yaratilgan asarlarning qadr-qiyamati va olamshumul ahamiyati haqida gap borganda, xulosa bir tomonlama cheklangan bo'lib qolmasligi uchun avvalo o'ta bir nozik jihatni e'tibordan qochirmaslik kerak. Ya'ni ushbu madaniyatning quyi va yuqori bosqichlarida goh Eron, goh Turon yoki diniy asosda arab madaniyati unsurlarining nisbatan ustunroq kelgani bilan, ammo uning taxminan miloddan avvalgi uchinchi mingyillikdan boshlab insoniyat sivilizatsiyasining ibtidoiy maskanlaridan biri va ulkani hisoblanishga haqli «hind madaniyati»ga bevosita payvandlikda shakllangan ekanligini!

Agar, endi ayrim olimlarning Buyuk boburiylar davri «Hind-musulmon madaniyati»ga ko'proq ta'sir ko'rsatgan Eron madaniyatimi yoki «Turon» kabi bahsi «muammosi»ga kelsak, bizning tushunchamizda, bunday omixta madaniyatning asl mohiyati oldida tarafkashlik kayfiyati bamisoli yer kurrasi kuni uchun qanchalik quyoshning yorug'ligiyu, tuni uchun qanchalik oy hamda yulduzlar

nuri zarurligini «aniqlash shart» bo‘lganidek gap. Vaholanki, yer kurrasining kuni va tuni uchun quyoshning balqishiyu, oy va yulduzlarning nuri faqat o‘z vaqti va o‘rni bilan betakror. Shu bois bu mavzu «muammo»sining optimal yechimi sifatida hind manбайдan olingan shunday bir xulosani eslab qo‘yish ayni muddao:

«Eron va Turon madaniyatining chatishgan unsurlari hind tuprog‘ida «Buyuk mo‘g‘ullar» madaniyati kelajagini belgilab berdi»<sup>6</sup>. Ushbu iqtibosdagi «hind tuprog‘I»ning urg‘ulanishida, yuqorida aytilganidek, «Buyuk mo‘g‘ullar» madaniyatiga qadim jahon sivilizatsiyasi maskanlaridan biri asos bo‘lganligi nazarda tutmoq kerak.

1.2-§. Shri-Lanka. «Lanka» oroli, mashhur Ramayana dostonida bayon etilishicha, to‘qqiz boshli podshoh Ravanning makoni bo‘lgan. U o‘z mislsiz kuch-qudrati badaliga doim dushmanlari ustidan g‘olib kelgan. Bu yovuz kuchga xudolar ham bas kelolmay qolganlarida, Brahma unga faqat inson bolasi bas kelishi mumkin bo‘lgani uchun Vishnu xudosidan odam tug‘ilishini so‘ragan ekan. Shunda kelgusida o‘z harbiy salohiyati va ezgulikka moyil beqiyos qalbi bilan mashhur bo‘lgan – Ayodha podshohining o‘g‘li Ram dunyoga kelgan<sup>7</sup>. U o‘sib-ulg‘aygach, Sita ismli qizga uylangan, lekin uning jufti halolini iblis Ravan o‘g‘irlab ketgan. Oqibatda Ram Lankadagi iblis bilan bo‘lgan uzoq va dahshatli jangda zafar quchib, dunyoda mardlik, halollik, sadoqat va vafo ramzida adolat qaror topgan. Binobarin, Ram qahramonligining sharofati bilan Lanka dunyoda ma‘lum va mashhur bo‘lgan.

Rivoyatda Ram va orolning o‘zaro bog‘lanishi besabab bo‘lmay, uni qadimdan hind va singal xalqlari o‘rtasidagi qo‘shnichilik munosabatlariga bir misol qilib ko‘rsatish mumkin. Balki shu bois ham hindlarning «Ramayana» dostoni mazmuni va uning qahramonlari Shri Lankaning davlat sifatida shakllanishida muayyan rol o‘ynagan bo‘lishi kerak.

Agar Shri Lankaning afsonaviy taqdiridan bevosita uning fandagi tarixiga kelsak, «bu yerda odam zoti paleolit davridan yashay boshlagan. Aniq faktlar bo‘yicha, Lankaga miloddan avvalgi V asrda hindistonliklar ko‘chib o‘tganlar. Va taxminan ikki asrdan keyin ilk mahalliy davlat uyushmasi paydo bo‘lgan». Shundan Shri Lankada dastlabki qabila davlatlar yiriklashib XV asrda singallarning *Kotte* va *Kandi* hamda tamillarning *Jafna* davlati vujudga kelgan.

Bordi-yu, to XVI asrda Portugaliya bu orol sohillarini bosib olgunicha mahalliy aholining madaniy taraqqiyoti masalasiga kelsak, ko‘hna Lankaning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bevosita hind sivilizatsiyasi ta‘siridan ibtido olgan va bu omil ilmiy tadqiqotlarda ham ta‘kidlangan. Chunki miloddan avvalgi birinchi mingyillikning o‘rtalarida ham bu yerlarda hali tosh asri davri davom etib, aholisi esa, asosan ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan.

O‘ziga xos tabiati, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega – Hindistondan bo‘g‘oz orqali ajralgan va beshdan to‘rt qismi uncha baland bo‘lmagan tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan oroldagi «veddio» va «dravid»lardan iborat aholi orasida avvaldan shuningdek, avstroloidlarga o‘xshagan kishilarni ham uchratish mumkin bo‘lgan<sup>8</sup>.

<sup>6</sup> Nilkanta Sastry. History of India. Part II, Madras: Mediaval India, 1950.

<sup>7</sup> Луния Б.И. История индийской культуры. Изд-во Московского университета, 1971. – С. 181.

<sup>8</sup> Жабборов И. Жахон халклари этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – Б. 103.

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan farqli o'laroq, qadim Lanka tarixida yana shunday bir voqea qayd etiladi:

«Miloddan avvalgi 4583-yili hind rojasi *Vijay* orolni zabt etganidan so'ng Lanka g'olibning nomi va oliy nasl-nasabi sharafiga «*Sinhala*» deb atalgan. U bu o'lkada dyehqonchilik hamda hunarmandchilikni yo'lga qo'yib, keyinchalik «*Seylon*» nomi bilan tanilgan Sinhalaning podshohi bo'lgan».

Orol obodlashuvi tarixining yana bir bayoniga binoan, «miloddan avvalgi IV asrda Hindistonning shimoliy viloyatlaridan bu yerga hind-oriy qabilalarining migratsiyasi boshlangan. Shu vaqtdan boshlab Lanka hududi rivojlanib, miloddan avvalgi III asrda rasman poytaxti *Anuradhapura* bo'l-gan singallarning dastlabki rasmiy davlati tuzilgan».

Fanda oroldagi iqtisodiy taraqqiyotning hind sivilizatsiyasi bilan aloqadorligi masalasi ikki omil asosida taxmin qilinadi. Biri, Lankaning hindlar bilan miloddan avvalgi birinchi mingyillikning o'rtalaridagi temir asriga doir o'zaro aloqalari bo'lsa, ikkinchisi, oroldagi singal tilining Hindiston shimolidagi hind-yevropa tillariga yaqinligi. Shu tariqa davom etgan o'zaro munosabatlar oqibatida Lankadagi taraqqiyotning birinchi milodiy asrdan jadal tus olishi, mutaxassislar fikricha, hatto qo'shni Hindistondan ham qolishmagan. Hayotning turli jabhalarida yuz bera boshlagan bunday jadal o'zgarishlar, oldin shimoliy viloyatlarda – nisbatan tekislikdan iborat bo'lgan namlik kam yerlarida kuzatilgan. Orolning tog'lik, o'rmonzor va namgarchilik hududidagi viloyatlari shimolga qaraganda ancha kech rivojlangan.

Lankaning subkontinentga yaqinligining ta'siri, agar uni bir tomondan hind sivilizatsiyasiga yaqinlashtirgan bo'lsa, ammo boshqa tomondan, Janubiy Hindistondagi kuchli davlatlarning tez-tez harbiy yurishlariga imkon yaratgan. Masalan, miloddan avvalgi II asrda Choladan kelgan tamillarning bosqini yoxud o'n to'rt yil davom etgan «*pand*»lar davlati tasarrufi va shuningdek, qaytadan tamillarning o'ttiz yil mobaynida orolning shimoliy qismidagi hukmronligi singallarni katta qiyinchiliklarga duchor etgan. Va nihoyat, uzoq davom etgan kurashlardan so'ng tamil bosqinchilarining orol hududidan chiqarib yuborilishi Shri Lanka tarixidagi qadimgi davrning tugallanishi arafasida yakunlangan<sup>9</sup>.

Ilk singal davlatchiligida monarxiya tuzumi joriy bo'lgani bilan, ammo taxtga vorislik muammosi hal etilmagan edi. Shuning uchun orol davlatlaridagi qarama-qarshi kuchlar o'rtasida tez-tez o'zaro to'qnashuvlar bo'lib turardi. Bu jarayonlarda Budda jamoasi ham muhim rol o'ynagan, ayniqsa *Anuradhapura* yaqinida faoliyat ko'rsatgan *Mahavihara* va *Abhavyagiri* ibodatxonalarini kohinlari. Chunki kohinlar nafaqat ma'naviy sohada va yer-mulk egasi sifatida katta kuch ega bo'lgan, balki ular shuningdek, ichki va tashqi siyosatda ham o'zlariga xos mavqega ega edilar. Shu va boshqa sabablar bois, hattoki o'zaro ichki munosabatlardagi murakkab ahvolga qaramay, milodning boshlariga kelib mavjud mustaqil davlatlar, sharoit taqozosi bilan ittifoq asosida tashqi kuchlarga qarshi kurash olib borish uchun o'zaro birlashganlar.

---

<sup>9</sup> История древнего востока. – М.: Высшая школа, 1972. – С. 376.

Shri Lankaning tashqi savdo aloqalari haqida soʻz yuritganda, yuqorida qayd etilgan yevropaliklarning tasarrufi va faoliyati masalasini ham unutmash kerak. Chunki Portugaliyadan keyin XVII asrda Lankaga kelgan Niderlandiya bilan Angliya oʻrtasida yuzaga kelgan muxolifat jang tusini olib, XIX asrning boshidan orol Angliyaning mustamlakasiga aylanadi. Shu yoʻsunda kechgan davrda syeylonliklar bir necha bor mustamlakachilarga qarshi kurashib, nihoyat 1948-yili Britaniya Seylonga dominion maqomini bergan. Va 1972-yili 22-mayda Seylon «Shri Lanka Respublikasi» deb eʼlon qilingan.

Lankaning tarixi va maʼnaviy hayotida hind rojasi *Vijay* tasarrufidan keyingi eng muhim voqea – bu uning poytaxti *Rajapatthiga* Ashoka tomonidan buddizm targʻiboti uchun yuborilgan hind missionerlarining tashrifi va faoliyati boʻlgan. Garchi muqaddam orol hududiga jaynizm va hinduizm singari diniy eʼtiqodlar kirib kelgan boʻlsa ham, ammo buddizmning hinoyana mazhabi bu yerda asosiy diniy eʼtiqod mavqeini egallagan. Buddizmning Lankada tarqalishi singal podshohining yangi eʼtiqodni qabul qilishi bilan yanada jonlangan. Orolidagi buddizm barqaror joylar uchun xos belgilardan biri, bu maxsus toshlar bilan ihota qilingan «*boddhi*» daraxtining muqaddaslik ramzi sifatida ulugʻlanishi edi. Chunki boddhi daraxti Ashoka hukmronligining 18-yili dabdaba bilan Lankaga ketirilib Anuradhapuradagi Mahavira ibodatxonasi hovlisiga ekilib, muqaddas daraxtlar sirasiga kiritilgan<sup>10</sup>. Lanka buddaparastlari orasida merojiiy maqomga muyassar boddhi daraxti shu qadar muqaddas sanalganki, u oʻzga sharbat beruvchi daraxtlardan farqli oʻlaroq, hatto rituallarda oʻqiladigan duoyu afsunlar jarayoniga ham doxil etilmagan. Aqidaga koʻra, uni iblislardan – nopoklikdan bu qadar ayri tutilishiga sabab, Buddaning hayotidagi barcha muhim voqealar muqaddas daraxtlarga taalluqli kechgan edi.

Demak, qadimgi Lanka aholisi diniy tushunchasidagi daraxt muqaddasligining boddhi shoxida aks etishi, yana bir bor buddizmning barcha oʻzga ilohiy panteonlarga nisbatan ijobiy munosabatining yorqin dalil edi, deyish mumkin. Dinda ilohiylik martabasidan podshohlar ham chetda qolmagan. Zero, boddhi daraxtiga taalluqli rivoyat va hikoyatlarda podshohga ham ilohiylikning ajralmas bir qismi, deb qaralgan. Bamisoli butun dunyo goʻyo asosiy Ilohning bir gulbogʻiyu, podshoh esa uning bogʻboni!

Lankada keng quloqch yoygan ibodatxonalarda mahalliy koinlar diniy falsafa va aqidalarni oʻrganish hamda buddizmning sanskrit, pali, singal tillaridagi matnlarni yodlash ishlarida jonbozlik koʻrsatganlar. Ammo XIII asr boshidan Anuradhapura va Polannaruva singari Janubiy Osiyo miqyosidagi buddizm markazlari tamillar hujumi va hukmronligi davrlarida tanazzulga yoʻliqqan. Shundan soʻng, taxminan XIV asrda janubiy hindistonliklar Lankada oʻz davlatlariga asos solganlar. Tabiiyki, bunday sharoitda buddizm hinduizm tazyiqiga tushib oʻz mavqeini yoʻqotgan. Oqibatda hinduparastlar Lankada oʻz ibodatxonalari qurilishini avj oldirib, ulardagi xos diniy marosimlarda qatnashish uchun hatto Hindistondan koinlarni taklif qilganlar.

---

<sup>10</sup> Семяка Е.С. Структура некоторых цейлонских ритуалов и мифов связи с культом деревьев (Индийская культура и буддизм). – М.: Наука. 19072. – С. 115.

Orolning «*Mahavamsa*» nomli ilk yozma tarixi ma'lumoticha, o'tgan davrlar ichida singal xalqi turli diniy e'tiqodlarning bevosita yoki bilvosita ta'siri sharoitida ham o'z milliy qadriyatlarini boyitishda davom etgan. Ya'ni, mahalliy aholi hind va boshqa xorijiy sivilizatsiya muhiti barqarorligida o'zligini yo'qotmagan. Holbuki, qadim singal madaniy-ma'rifiy hayoti tarixiga doir ilmiy nashrlarda hind kohinlari tomonidan buddizmning pali tilidagi diniy manbalari olib kelingani va ularning mahalliy adabiyotga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatganligi alohida urg'ulanadi. Ammo hatto shunga ham qaramay singal badiyatida milliylik ruhi saqlanib qolavergan. «Agar ushbu diniy-madaniy jarayon mag'zini ma'naviy aspektda ta'riflagudek bo'lsak, milodning I asrida pali va singal tillarida tarixiy xronikaga taalluqli qo'lyozma asarlar va diniy matnlar tafsirining yaratilishi o'sha davrdagi lankaliklar intellektual darajasining o'ziga xos ko'rsatkichi edi», deyish mumkin.

Ha, tarixan subkontinent va Lanka o'rtasidagi o'zaro aloqalarning mahalliy madaniyatga ko'rsatgan ijobiy ta'siri to'g'ri – bu inkor qilib bo'lmas omil. Lekin shuning barobarida, oroldagi buddizm yozma matnlari, me'morchilik sohasiga taalluqli shahar va boshqa inshoot qoldiqlari yoki badiiy hamda tasviriy san'at asarlari faqat hind sivilizatsiyasining nusxasi emas, balki ular tub milliy madaniyat bilan mushtarak singal ijodiyoti osori atiqalari ham edi.

1.3-§.Nepal. Nepal tarixi haqida so'z boshlashdan oldin aksariyat uchun noma'lum bo'lgan bir xususga e'tiborni jalb qilmoqchimiz. Ya'ni o'z hududi bo'yicha yer kurrasining eng kichik mamlakatlaridan biri bo'lgan Nepal haqidagi dastlabki xabar muallifi, ilmiy adabiyotlarda berilgan ma'lumot bo'yicha Abu Rayhon Beruniy bo'lgan<sup>11</sup>.

Bu xabar tabiiyki, tarixshunos va sharqshunoslarimizni qiziqtirishi turgan gap. Chunki o'n bir asr muqaddam hazrat Beruniy qalamga olgan mazkur o'lka qaydi bejiz bo'lmasa kerak. Shuning uchun ushbu ma'lumot mujassam manbaga e'tibor berilishi, o'ylaymizki, bu – kelgusi tadqiqotlar uchun yangi mavzu.

Rasman fandagi ma'lumotga ko'ra, hozirgi «Nepal hududi tog' etaklaridagi changalzorlarda miloddan avvalgi birinchi mingyillikning o'rtalarida *videx, shakya, malla* va *lichchha* atalmish qabilalar yashagan». Mazkur «*shakya*» qabilasi zikridan – agar tasodifiy o'xshashlik bo'lmasa, naslan Budda ajdodlari ham ushbu qabilaga daxldor bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Yana, Nepalga taalluqli ayrim xabarlarni XVII asrning birinchi choragida Janubiy Osiyo mamlakatlariga safar qilgan yevropalik missionerlar Kabal va Gryuberlarning muxtasar esdaliklarida uchratish mumkin. Chunki Hindiston va Xitoy o'rtasidagi Himolay tog'i va uning tizmalari bilan o'ralgan bu o'lka, o'z tabiati va o'ziga xos turmush tarzi hamda madaniyati bilan doim olim va sayyohlar diqqat-e'tiborida bo'lgan. Bu borada avvalo shuni alohida ta'kilash kerakki, Nepal o'z jug'rofiy joylashuvi bilan juda tabiatda kam uchraydigan o'lkalardan biri. Ya'ni Nepal hududining aksariyat qismini Himolay tog'lari egallagan. Va bu yerdagi hayvonot dunyosi ham shunga yarasha turlicha: Himolay ayig'i, qoplani, karkidoni, to'ng'izi va turli parranda-darrandalar.

---

<sup>11</sup> Костининский Д.Н. Непал. – М.: Госгеографиздат, 1951. – С. 3.

Basharti Nepalning eng qadim tarixi, aniqrog'i bu o'lkaning qanday paydo bo'lganligi masalasiga ilmiy nuqtai nazardan yondashsak, Katmandu qachonlardir tog'lar orasidagi ulkan ko'l ostida bo'lgan. Kuchli yer qimirlashi natijasida yerdan suv qochgach, vodiya mezolit davrida turli yerlardan avstroloid va mongoloid qabilalar kelib joylashgach, ular keyinchalik «nevara xalqi» nomi bilan tanilganlar. Milodning dastlabki asrlarida esa Nepal vodiysida Nevar davlati paydo bo'lishi bilan XV asrga kelib bu yerda yana bir necha mayda davlatlar ham faoliyat ko'rsatgan – *Bhatgaon, Jumla* hamda *Palpa*<sup>12</sup>. Vodiy dalalari o'z hosildorligi, uning aholisi esa o'z iqtidori, madaniyati va hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lgan.

Nepalliklarning kelib chiqishi haqida yana shunday ma'lumotlar ham borki, ularga ko'ra, aslida Nepalning eng qadimgi aholisini tibetlik qabilalar – *nevarlar, limbu, lepcha, kasvar, denvar* va boshqalar tashkil qilgan. Ammo ularning ichida son jihatdan eng kattasi nevarlar o'z madaniy taraqqiyoti darajasi bilan qolganlardan yuqori turgan. Bu yerda tub mahalliy aholidan tashqari, mo'g'ullar va keyinchalik musulmonlar yurishi davrida turli sabablarga ko'ra janubdan qochib kelgan qator elat va qabila vakillari ham yashagan. Garchi ular mahalliylarga o'zlashib ketgan bo'lsalar-da, lekin o'z diniy e'tiqodi va milliy an'analarini saqlab qolganlar, demak, o'z jamiyatiga xos tabaqa tizimi asoslarini ham.

«Nepal uzoq o'tmishdan Hindiston ta'sir doirasida bo'lgan, ayniqsa guptalar davrida. Fandagi ma'lumotlarga qaraganda, Nepal Samundragupta hukmronligi yillari «qo'shni podsholik» statusiga ega edi». Va albatta bu sharoitda ikki o'rtada chegara ham bo'lmagan. Nepalning savdo yo'li yuzida joylashganligi uning rivojlanishida muhim omil edi. Himolay mintaqasida Hindiston, Tibet, Xitoy savdo karvonlari uchun davon bo'lgan bu o'lkada mahalliy nevarlarning «Malla sulolasi» mamlakat taraqqiyotida shunday darajaga erishgan ediki, ular hukmronligi Nepal tarixida «Oltin asr» nomi bilan yozilgan. Biroq, Nepal tarixida shuningdek, tanazzul asri ham qayd etilgan. Masalan, «Thakiri sulolasi» davrida yuz bergan yer qimirlashi hamda mustaqil shaharlarning o'zaro muttasil janglari oqibati davrida.

XVIII asrda Nepal bir necha – Katmandu, Badgon va Lalitpatau kabi rojaliklardan iborat bo'lib, keyin ularni o'rtadagi o'zaro kelishmovchiliklari tufayli hindistonlik rajputanlar zabt etganlar. Shu bois ularning ko'pchiligi keyinchalik shu yerda qolib ketganlar. Lekin ko'p o'tmay, rajputlar mahalliy aholini tog'liklar orasiga haydab, faqat o'zlari hosildor yerlarga egalik qilganlar. Nepalning keyingi tarixidagi Xitoy imperatoriga xiroj to'lash majburiyati yoki shuningdek, uning Buyuk Britaniya protektaratiga aylanishi, qirollik tarixida uzoq davom etgan mustamlaka istibdodi davri sifatida qayd etilgan<sup>13</sup>.

Avval, ya'ni to ingliz protektaratiga qadar Nepal aholisi ikki dinga e'tiqod qilgan: buddizm va brahmanizmga. Ammo nepalliklarning brahmanizmi tabaqa tizimi hindlar aqidasi tamoyilidan ancha farq qilgan. Buddaparastlar esa aksincha, taqvoda ayrim brahmanizm unsurlarga amal qilganlar. Nepal hududiy jihatdan kichik bo'lishiga qaramay, uning shahar va qishloqlarida ibodatxonalar, Buddha haykallari va diniy rituallari bilan bog'liq ashyolar azaldan juda ko'p bo'lgan. Diniy

<sup>12</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. – Т.: 2005. 10-сон.

<sup>13</sup> Котинский Д.Н. Непал. – М.: Госгеографиздат. – С. 13.

an'analar ruhidagi qurilmalar ichida buddizmga xos osti uch burchak shaklidagi nayzali qubbalar – «stupa»lar o'zining mahobati bilan doim Nepalning ko'rki va g'ururi hisoblangan. Stupalar ichida eng bahaybati *Svayabunat* kabi tog'i cho'qqisidagi yaxlit toshdan kesib yasalgani edi.

Nepal keyinchalik hinduizmni dunyoda Hindistondan keyin davlat dini sifatida qabul qilgan birinchi mamlakatdir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, aholining deyarli asosiy qismi hinduizmga e'tiqod qiladi. Son jihatdan hinduparastlardan keyingi o'rinda buddaparastlar turadi. Katta shaharlarda esa qisman musulmon, xristian va ayrim animistik e'tiqod vakillarini ham uchratish mumkin.

Nevar me'morlari qurgan ibodatxona va saroylar qadimdan o'z muhandislik va o'ymakorlik uslubining qaytarilmas shakli hamda savlati bilan ajralib turadi. Masalan, «XII asrdan boshlab Nepalda odat tusiga kirgan qo'shqavat tomli ibodatxonalarning qurilishi dovrug'i Xitoygacha yetib borib, so'ng ular Yaponiyada ham tarqalgan». Yoki yaxlit toshni kesib va yo'nib haykallar yasash san'ati bo'yicha nepallik ustalar nafaqat o'z yurtida, balki boshqa qo'shni mamlakatlarda ham dong taratganlar. Shu jumladan albatta Hindiston yarimoroli hududida ham.

Nepalda teatr san'ati bo'lmaganligi uchun, qadimdan u yerda asosan tasviriy san'at turlari rivojlangan. Rassomlar o'z asarlarini odatda xudolar hayotiga doir voqealar tasviri yoki hashamatli saroy va imoratlarning qurilish jarayoni singari mavzulariga bag'ishlaganlar. Mahalliy tilda «*paubha*» deb atalgan bunday qilqalam durdonalari ibodatxona va qiroatxonalarda saqlanib, ular faqat xos marosimlarda namoyish etilgan». Qilqalam san'atidan tashqari, nepalliklar turli niqoblar yasash borasida ham o'z noyob uslublariga ega edilar. Aytgandek, «Nepalliklarda musiqa ijrosi ham taqvo turkumiga kirgan. «*Bhajan*» ana shunday musiqiy janr bo'lib, uning ijrosi vaqtida erkak nevarlar ibodatxona oldi maydonida diniy matnlarni kuylaganlar». Qirollikning o'ziga xos xusiyatlari ichida eng ajablanarli bir jihati, bu – uning turli tillari. U yerda «aholi hind va tibet-xitoy tillari oilasining 60 xil tili va she'valarida so'zlashadi. Va bu tillardan faqat 14 tasi o'z yozuv xatiga ega. Demak, boshqa tillar faqat og'zaki tarzda muomala-munosabatda istifoda etiladi. Ular ichida rasmiy davlat tili, bu – nepal tili».

1.4-§. Butan. Butan qirollikning asl nomi ikki ma'noda talqin qilinadi, ya'ni: «Ajdar – momaqaldiroq mamlakati» va «Bhuutan – Tog'lar mamlakati». Butan Himolay tog'i tizmalaridagi Hindiston va Xitoy sarhadlari o'rtasida joylashgan. Iqlimi tog'-tropik, mussonli hamda sernam. Tog'larning yuqori qismi esa sovuq. 3500 metr balandlikda o'rmonzorlar, undan balandlikda sub-alp va alp o'tloqlari. Butan hududidan Sankosh, Amo va Kuru daryolari oqib o'tadi.

Butanning qadim tarixi haqida hozirgacha deyarli aniq ma'lumotlar yo'q. Agar internet ma'lumotlariga binoan bu tog'lik o'lkada miloddan avvalgi II asrdan odamlar yashay boshlaganligini inobatga olingan taqdirda ham, mavjud xabarlarda ularning hayoti va faoliyati faqat ayrim tarixiy lavhalar bilan cheklangan. Shundan ham ma'lumki, butanliklarning tarixi rasman biror manbada zikr etilmagan. Qolaversa, XIX asrning birinchi choragida Punakha shahrida katta yong'in chiqishi oqibatida qo'lyozma kitoblar saqlanadigan markaziy kutubxona yonib bitgan.

Ammo mutaxassislar nazdida, xalq orasida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan uzoq o'tmishdan darak beruvchi afsona va rivoyatlarni so'zsiz o'ziga xos tarixiy manbalar sirasiga kiritish mumkin. Afsonalardan ibtido olgan og'zaki tarixga ko'ra, baland tog'lar va ular etagida yashagan aholidan qadimdan to yaqin o'tmishga qadar dunyo bexabar bo'lgan. Balki ayni shu sababdan, Butan dastlab «Muqaddas yashirin diyor» yoki «Ilohlarning nilufar bog'i» kabi nomlar bilan atalgan bo'lsa, ajab emas!

Butan tarixini faqatgina uning noyob tabiati xususiyatlari asnosida ta'riflash albatta noto'g'ri. Chunki tarixda azaldan bu jannatmakon diyorni bosib olish istagida bo'lgan qo'shni davlatlar kam bo'lmagan. Shu maqsad yo'lida IX asrda Butanga bostirib kirgan tibetliklar oldin mahalliy aholini quvib chiqarib hosildor yerlarni o'zlashtirganlar va bora-bora o'z sobiq vasallariga o'zlari ham o'zlashib ketganlar. Oradan salkam yetti asr o'tgach, asli tibetlik kohin va musavvir *Shabdrunga* nomli avliyoning Butanga kelishi ichki ijtimoiy-siyosiy hayotda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ya'ni u o'z iqtidori va imkoniyatlari sharofati bilan, nihoyat, Butandagi barcha tarqoq jamoalarni yagona kuch ostida birlashtirib, ularni millat sifatida shakllanishiga asos yaratgan. U o'zining o'ttiz yildan ziyod hukmronligi davrida, Butanni tashqi dushmanlardan bir necha marotaba himoya qilib qirollikka xos tarkib va tartibni saqlab qolgan. Uning rahbarligida Butanda qad ko'targan himoya qal'alari, ma'muriy inshootlar va boshqaruv tamoyillari milliy davlatchilik asoslarini kasb etgan. Binobarin, mazkur davlatni boshqarish tizimi ma'muriy jihatdan dualistik uslubga asoslangan edi: ma'naviy – *Dharma raja* hamda ijtimoiy – «*Deb raja*».

Aholisining qariyb o'ttiz foizi nepalliklardan iborat butanliklar madaniyatining o'ziga xos shunday unsurlari borki, ularning mag'ziga diniy kabi harbiy ruhiyat ham yo'g'rilgan. Agar qadimda *Chaam* raqsini buddizm kohinlari maxsus niqoblarda ijro etgan bo'lsalar, milliy festival kunlari kamondan o'q otish bo'yicha erkaklar o'rtasida musobaqalar o'tkazilgan.

«Madaniyat to'g'risida gapirganda, albatta butanlik mohir to'quvchi ayollarni eslab o'tmay iloji yo'q. Darhaqiqat, mirishkor va chevar butanlik ayollar azaldan ipak, paxta va boshqa o'simliklar tolalaridan betakror san'at asari darajasidagi xaridorgir matolar to'qiganlar. Erkak va ayollar kiyim-kechaklari ham xuddi shu madaniy to'qimachilik an'analari asosida bichib tikilgan. Mahalliy tilda «*kiro*» hamda «*tego*» atalgan liboslar sifatidan, fuqarolarning o'z jamiyatidagi tutgan o'rni va mavqei aniqlangan».

Dastlab Butanning aholisi shamanizm e'tiqodida bo'lib, ular tabiatga sig'inganlar va undagi hodisotlarni esa ezgulik ruhlari va iblislar faoliyatidan, deb bilganlar. Bu holat to milodning o'rta asrlarigacha davom etgan. Holbuki, taxminlarga ko'ra, VII asrdan Butanga buddizm kirib kelgan. Ammo bu yerda buddizmning to'laqonli din sifatida e'tiqod maqomiga ko'tarilishida VIII asrdagi guru *Padmasambha* tashrifi bemubolag'a muhim tarixiy rol o'ynagan. Shuningdek, Mahayana mazhabidagi Butan buddizmi – «*Drukpa kargyu*»ning ommalashuvi tarixida yana bir necha tibetlik mashhur lamalarining faoliyatini qayd etish mumkin: Sangpa Gyare, Pema Lingapa va boshqalar.

*Drukpa kargyu* buddizmi Butanda eng keng tarqalgan rasmiy e'tiqod turi bo'lib, undan tashqari, son jihatdan oz bo'lsa-da, fuqarolar orasida Tibet milliy dini «*Bon-po*», hinduizm va islom dini ham joriy bo'lgan. Butan aholisi diniy marosimlarining eng muhimlaridan biri bo'lgan mayyitni dafn etishda, uni kuydirishdan tashqari, yana tibet an'alariga ham rioya qilingan. Ya'ni marhum jasadini qushlarga yem qilish uchun uni maxsus yerlarga eltilgan. Shunda emishki, marhumning tanasi qushlar yordamida to'g'ri osmonga ravona bo'lar ekan. «*Dzong*» atalmish buddizm ibodatxonalarini Butanda son jihatdan o'zga diniy maskanlarga nisbatan ancha ko'p. Qirollik dinlari xususida yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Butan dinlari deganda, Tibet, Nepal va boshqa qo'shni hududlardan migratsiya davrida qolib ketgan turli elat hamda qabila vakillarining animizm yoki shamanizm ruhidagi hozirgacha saqlanib qolgan e'tiqodlarini ham nazarda tutish kerak<sup>14</sup>

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodlari va madaniyati to'risida avtoreferatda bayon qilingan ma'lumotlar, o'zining monografiyadagi hajmi va qamroviga nisbatan faqat namuna vo-sitasini o'tagan, xolos.

**Tadqiqotning ikkinchi yo'nalishi «Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi, madaniyati»ga bag'ishlangan bo'lib, unda Indoneziya, Malayziya, Vyetnam, Birma, Tailand, Kambodja, Laos, Singapur va Filippinlar mavzuiga taalluqli tadqiqot ma'lumotlari berilgan.**

2.1-§. Indoneziya. Indoneziya mamlakati joylashgan arxipelag geologik tarixida shunday bir noyob voqe'lik qayd etilgan. Ya'ni «Muzlik davridan keyin taxminan o'n yetti ming yil o'tib dengiz sathidan yuzaga chiqqan qirg'oq bo'yida ilk jamoalar paydo bo'lgan. 1891-yili Markaziy Yavada topilgan «*Java man – Yava odami*» qoldig'idan ma'lum bo'lishicha, million yillar muqaddam Indoneziyada homo suppies – dastlabki ongli odamlar yashaganlar». Bordi-yu, agar bu ma'lumotga jug'rofiy jihatdan yondashilsa, «Indoneziya hududi, Malay arxipelagi va Yangi Gvineya orollari garbiy qismidagi qirg'oqlarini Tinch hamda Hind okeani yuvib turuvchi orollar guruhidan iborat».

Fanda ta'kidlanishicha, qadimdan arxipelag hududidagi yirik orollarda yashagan jamoalarning o'z tili, tarixi va madaniyati bo'lib, ular keyinchalik bir mamlakat hududida birlashgan. Shu nuqtai nazardan arxipelagda yashagan odamlar deganda, odatda «birinchi yavalik odam» atamasi nazarda tutilsa kerak. Zero, Yava – Indoneziya hududiga tegishli Malay arxipelagidagi eng katta orol. Mazkur orolning o'z qadimiy tarixi bo'lib, shunga ko'ra, «mahalliy jamoalarning milodiy asr boshidan qishloq xo'jaligi rivoj topgan yerlarda davlatchilik tizimi vujudga kelgan.

Qaydlarga qaraganda, Yava haqidagi dastlabki mavjud ma'lumotlar hind savdogarlari tufayli paydo bo'lgan. Chunki bu yerda xorijiy savdogarlar bilan hamkorlik qilishga qodir va tayyor hukmdorlar bo'lib, ular ibtidodan savdo aloqalariga homiylik ruhida munosabatda bo'lganlar. Hindlar esa, savdo faoliyati orqali mahalliy davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Shu

---

<sup>14</sup> Страны мира: Краткая политическая экономика справочник. – М., 1980.

sababdan bo'lsa kerak, Yavadagi mahalliy davlatchilik tizimi va uning shakllanishida hindlarning qo'shgan hissasi indonez tarixi manbalarida saqlanib qolgan. Xususan, hindistonlik Ad'i Shaka ismli zotning indonezlarga ko'rsatgan xizmati haqida shunday qayd saqlangan:

*«Emishki, go'yo milodiy 78-yili Yavaga kelgan A'di Shakaning tashrifidan mahalliy yil hisobi boshlangan. U o'zi bilan bu orollarga diniy e'tiqod va madaniyat olib kelib davlat ishlarini ham tartibga solgan...».*

Arxipelagning Hindiston bilan olib borgan savdosi davrida mahalliy davlatlarda ayniqsa buddizm va hinduizm e'tiqodi hamda ularning madaniyati ta'siri sezila boshlagan. Hinduizmning Indoneziyada tarqalishida esa, mahalliy hukmdorlarning hissasi katta bo'lgan, chunki ulardan so'ng fuqarolar ham hinduizm dinini qabul qilganlar. Bu voqelik «Bali alifbosi»da bitilgan manbalardan ham ma'lum.<sup>15</sup> Yoki V asrda buddizmga doir yozilgan matnlarning Kalimantan va Bruneyda topilishi bu diniy e'tiqodning Indoneziyada o'zlashuvidan dalolat edi. Shu tariqa Indoneziyada Hindiston davlatchilik tizimi, dini va madaniyati transmissiyasi VII asrdan keyin ayrim qudratli davlatlar imkoniyati hisobiga yanada kuchaygan. Jumladan, Mataram (VIII-IX), Shrivijaya (XI-XIV) va Majapaxit (XIII-XVI) davlatlari bu borada muhim rol o'ynagan. Ba'zi ilmiy manbalarda orollar hududiga bo'lgan migratsiya haqida shunday xabarlar mavjud:

*«Yavaga birinchi bo'lib vishnuparastlar, ulardan keyin buddaparastlar kelganlar. Agar bu ma'lumotni, bir tomondan, ayrim qurilmalar qoldiqlari va bitiklar tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, xitoylik sayyoh Fa Syan xotiralari eslatadi».* Holbuki, Indoneziya aholisi hinduizm bu hududga kirib kelgunicha animizm tushunchasidan ibtido olgan o'z e'tiqodiga ega bo'lgan. Shu e'tiqoddagi jami indonezlar barcha ko'zga ko'rinuvchi va ko'rinmaydigan yer, suv va havo ruhlari kabi g'ayrioddiy kuchlarning odam hayotiga ta'sir ko'rsatishiga qattiq ishonganlar.

Ibtidoiy mahalliy e'tiqodlar davrida o'zlashgan buddizm va hinduizmdan so'ng, fandagi ma'lumotlarga qaraganda Indoneziyada islom qabul qilinishidan oldin vaqti-vaqti bilan musulmon savdogarlari paydo bo'lgan va ular keyinchalik Levan va Sharqiy Yavada jamoa bo'lib yashaganlar. Bu ma'lumotni musulmonlar mozoridagi toshlarda bitilgan sanalar tasdiqlashi mumkin: hijriy 425 – 1082-yil.<sup>16</sup> Shuningdek, ba'zi adabiyotlarda musulmon jamoalarining tugal joylashishi 1290-yili Sumatra orolining shimolidagi Pasay bandargohida deb ko'rsatilgan. Shu tariqa 1300-yili Malay yarim orolining shimoli-sharqiy qismida birinchi mahalliy islom davlati tuzilgan.<sup>17</sup>

Demak, yuqorida imperiya maqomida qayd etilgan davlatlardan keyin Indoneziyada vujudga kelgan sultonliklar islomning davlat dini maqomiga ko'tarilgan davrining timsoli edi. Shu ma'noda tadqiqot monografiyasida turli davrlarda hukmronlik qilgan Ache, Demak, Bantam, Pajang, Tidore va Ternate sultonliklarining ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy faoliyati tarixi bayon qilingan. Biroq, shunda ham bu sultonliklar silsilasi barpo bo'lishidan muqaddam bu orollar

<sup>15</sup> Jill Forsahee. Culture and Customs of Indonesia. Greenwood Press. London, 2006. – P. 33-34.

<sup>16</sup> Frauze Saleh. Modern trends in Islamic theological discourse in XXth century. Brill, 2001. – P. 17.

<sup>17</sup> Steven Darkely. The History of Indonesia. Greenwood Press. Westport. Connecticut. London, 2005. – P. 18.

mamlakatiga islomning qachon kirib kelganligining aniq sanasi haqida hamon fanda yakdil xulosa mavjud emas.

Madaniyat tadqiqoti sohasida esa shuni ta'kidlash kerakki, indonez madaniyati va san'ati haqidagi ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarda ayni sohaga tegishli uch davr madaniyati ko'zga tashlandi:

1. Ibtidoiy indonez madaniyati.
2. Indonez, hind va malay mushtarak madaniyati.
3. Islom dini davrida shakllangan indonez milliy madaniyati.

Ammo mazkur har uch davrning vujudga kelishida arxipelagga migratsiya qilgan xorijiyalar ham o'z madaniy merosini, mayli, ma'lum bir qismini bo'lsin, saqlab qolganlar, ya'ni o'z og'zaki adabiyoti, musiqasi va raqsini. Shu nuqtai nazardan Indoneziya madaniyatini baynalmilal qadriyatlar sirasiga kiritish mumkin.

Tarixda Indoneziyaga chet elliklarning kirib kelishi quyidagi tartibda ta'kidlangan. Ya'ni bu o'lkaga birinchi Sharqiy Osiyodan xitoylar kelganlar, G'arbdan esa hindlar. Ulardan so'ng arablar va yevropaliklar.<sup>18</sup> Yevropaliklarning Indoneziyadagi faoliyati xususidagi Steven Drakelining «Indoneziya tarixi» risolasida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, «Yevropaliklar nainki Indoneziya taraqqiyotiga turtki berganlar, balki uning kelajagi – mustaqil mamlakat sifatida shakllanishida ham o'z hamkorliklari tufayli munosib hissa qo'shganlar». Ammo shu xulosaning qatorida kolonial tizimni mahalliy xalq uchun u qadar tarixiy fenomen bo'lmaganligi ham aytib edi: ya'ni «but colonialism was non so central historical phenomenon that it subsumed everything else for three or four hundred years».<sup>19</sup> Ushbu yo'nalishda shuningdek, Indoneziyaga kelgan xorijiyalar qatorida Yaponiya tasarrufi va uning qo'shqiyo faoliyati haqida ham ma'lumotlar berilgan.

2.2-§. Malayziya. Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyoning qoq o'rta qismida joylashgan bo'lib, uning hududi bir-biridan ayri bo'lgan ikki – materik va orollardan iborat. Mazkur materik qism «G'arbiy Malayziya» deb atalib, uning tarkibiga Malakka yarimoroli va unga yondashgan orollar kiradi. Bu yerda shuningdek, ikki o'z tarixiga ega viloyatlar mavjud: Saravak va Sabah.

Mamlakatning jug'rofiy ta'rifini taniqli malayshunos N.Ya. Rayan so'zlarida ifodalaganda: «Malayziya, bu – dunyo tarixiga o'zining o'ta jug'rofiy afzalligi bilan kirib kelgan hududlarning biri». Balki shuning uchun Malakka yarimoroli asrimizning boshidayoq Klavdiy Ptolomeyning «*Jug'rofiya*» degan asarida «Oltin yarimorol» ramzida eslatilgan.

Ayrim tadqiqotlar xulosasi bo'yicha, bu yerga dastlab Xitoyning janubi-sharqiy hududidagi aholi migratsiya qilgan. *Senoylar* va protomalaylar esa kichik guruhlar shaklida Xitoy janubi va Tayvandan qariyb 5000 yil muqaddam migratsiya qilganlar. Biroq bu guruhlar a'zolari hech bir-birlari bilan oilaviy rishtalar asosida o'zaro qovushmagan. Hozirgi malaylar, indonezlar, fillipinliklar muarrixlarning fikricha, *Chao* sulolasi davrida xitoylar bilan assimilyatsiya asosida shakllangan. Yoki ikkinchi bir ma'lumotga ko'ra, hozirda Malayziyada yashayotgan aholining 3

<sup>18</sup>Вильчек Э., Шурц Г., Вейле К. История человечество. Минск. Серия «Классическая мысль». Изд. Полигон. 2003. – С. 126.

<sup>19</sup>Steven Drakely. The History of Indonesia. Greenwood Press. Westport. Connecticut. London, 2005. – P. 23.

foizini tashkil qiluvchi negroidlar, arxeologik izlanishlar natijasi bo'yicha Malay yarimorolining o'rta va shimoliy qismida miloddan avval taxminan 10000 yillar oldin – o'rta tosh asridan boshlab yashaganlar.

Malayziyada davlatchilik tizimining shakllanishi, asosan Malakka yarimorolida dengiz orqali olib borilgan savdo aloqalari bilan bog'liq bo'lgan. Buning ibtidosi Qizil va Janubiy Xitoy dengizlarining o'zlashtirilishidan boshlangan. Ilk malay davlatchiligi uchun tegishli sharoit yaratilishida mavjud qabilalardagi ichki ijtimoiy holatda yuz bergan ijobiy burilishlar ham muhim rol o'ynagan. Va bu jarayon zamirida ishlab chiqarish kuchlarining o'sib borishi qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ta'sir qilgan. Shu tariqa, Malakka yarimorolining shimoliy hududida, ya'ni Hindiston va Xitoy yo'llari tutashgan yerida davlatchilik faoliyatiga qulay sharoit yuzaga kelgan. Bu sharoit asosida – savdo yo'llariga yaqin daryolar qirg'og'ida birinchi milodiy asrga kelib bir necha kichik shahar-davlatlar paydo bo'lgan: *Tambradinga, Takola*. Shundan keyin Mekong deltasida I asrdan *Funan* davlati Xitoy va Hindiston bilan diplomatik hamda savdo aloqalari o'rnatib, II-III asrlarda Janubi-Sharqiy Osiyoning eng qudratli davlati sifatida faoliyat ko'rsatgan<sup>20</sup>. Shu tariqa davlatchilik tizimi paydo bo'lgach, avvalgi animizm e'tiqodi o'rnini Hindistondan kelib o'zlashgan brahmanizm, buddizm va hinduizm egallab, so'ng ular muayyan hududlarda davlat dini sifatida qabul qilingan.

Malayziyada hind diniy e'tiqodlari amaliyotining qay darajada ustuvor mavqeni egallaganligi arxeologik izlanishlarda aniqlangan yozma bitik va ashyolardan ma'lum. Xususan, «IV-V asrlardan qolgan sanskritdagi buddaviy bitiklar, ibodatxona qoldiqlari hamda hind haykaltaroshlik uslubida yasalgan sanamlar»ni buddizmning o'z davrida malay sarzaminida qoldirgan izlari, deyish mumkin.

Bulardan tashqari, Xitoy solnomasida zikr etilgan buddizm astrologlari faoliyati tavsiflari ham Malayziyadagi hind diniy arboblarga bo'lgan e'tibor va e'timodning qanchalik kuchli ekanligi e'tirofidir, ya'ni:

*«Mamlakatda mingdan ziyod brahmanlar yashaydi. Dunsun xalqi ularning ta'limotiga e'tiqod qiladi va ularga o'z qizlarini kelin qilib uzatadilar ham. Brahmanlar muqaddas kitoblarni o'rganishdan boshqa biror ish bilan shug'ullanmaydilar va o'zlaridan muattar hidlar taratib, gullar bilan bezanadilar va tunu-kun diyonat va tavfiq asosida umrguzaronlik qiladilar».*

«Islom, Indoneziyadan farqli o'laroq, Malay sarzaminiga arab, hind va xitoy savdogarlari bilan kelib, u yerda rasman diniy e'tiqod sifatida XV asrda qaror topgan». Xususan, 2003-yili Singapurning Allen & Unwin nashriyotida chop etilgan «A Short History of Malaysia» monografiyasida Malayziyadagi birinchi sultonlik asoschilari hayoti va faoliyati shunday ta'riflangan:

«Parameshvara 1414-yilga qadar Malakkani boshqarganidan so'ng, taxtni uning o'g'li Megat<sup>21</sup> Iskandar Shoh egallagan va u ham Malayya hukmdori maqomida islomni qabul qilgan».

<sup>20</sup> Агар Фунан давлати айрим адабиётларда Малайзия давлати дейилган бўлса, баъзи бошқа тадқиқотларда «Ҳинди-хитой давлати» дея қайд этилган.

<sup>21</sup> Мегат номи билан аталган Парамешваранинг ўғли баъзи нашрларда Шри Махаража номида зикр этилган.

Birinchi hukmdor sulton Parameshvaradan keyingi Malayziya sultonli-gining ro'yxati quyidagicha yakun topgan:

1414-1424 – Megat Iskandar Shoh

1424-1444 – Muhammad Shoh

1444-1446 – Abu Sayid

1446-1459 – Muzaffar Shoh

1459-1477 – Mansur Shoh

1477-1488 – Aluvuddin Riayat Shoh

1488-1511 – Mahmud Shoh.

Ayonki, musulmon dunyosida taxt ayrim istisnolardan tashqari, qonunan otadan o'g'ilga o'tuvchi meros bo'lgan. Va nazariy jihatdan birinchi malika o'g'li taxt sohibi qilib tayinlangan. Lekin Malakka sultonligida, ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, taxtga egalik faqat nasliy asosda otadan to'ng'ich o'g'ilga o'tishi shart hisoblanmagan. Shuning uchun kenja o'g'il yoki qarindosh urug'lar vakilining ham taxt vorisligiga daxldorligi inkor etilmagan. Va Malayziya tarixida bu xususda ayrim musulmon dunyosiga xos bo'lmagan istisnolar ham kuzatilgan. Ya'ni «sulton saroyida tan olingan rasmiy malikalardan tashqari, shuningdek uning ma'shuqalari ham bo'lib, ularning farzandlari orasida ham merosxo'rlikka munosib yigitlar kam bo'lmagan. Shu bois ba'zan rasman malika mavqaida bo'lmagan ayollar farzandlaridan ham hukmdor chiqishi mumkinligi, bu asl zurriyotlarning kuchsizligi nishoni edi»<sup>22</sup>.

Demak, sultonlikda vorislik huquqiga xos ziddiy holatlar yuzasidan shunday savol paydo bo'lishi tabiiy:

«Saroyda ma'shuqalar zurriyotiga berilgan bunday imkoniyat balki animistik e'tiqod davrida joriy bo'lgan ayollar huquqiga oid biror qonun oqibatidir?»; «Yoki ma'shuqalar zurriyotidan merosxo'r tanlanganda ularning ona tomondan nasliy kelib chiqishidagi ustuvorlik omili hal qiluvchi asos bo'lgandir?». Biroq qayd etilgan risolada taxtning haqiqiy vorislari xususidagi «kuchsizlik»ning asl sabablari ko'rsatilmagan.

Ma'lumki, Malayziyada islom dinining o'zlashuvi asosan malaylarning Janubiy va so'ng Janubi-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar bilan olib borgan savdo faoliyatining natijasida yuz bergan edi. Binobarni, bu o'zlashuv nainki sultonlikning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, balki shuningdek, Malayziyaning madaniy hayotida ham muhim o'rin tutgan. Ayni shu boisdan odatda Malayziya madaniyati haqida so'z yuritilganda, negadir asosiy urg'u o'rta asrlarga beriladi, ya'ni Malakka sultonligi davriga. Vaholanki, bu davr madaniyati, xususan xalq og'zaki ijodi, adabiyoti va hatto soyalar teatri muqaddam Hindiston tamadduni ta'siriga asoslangan edi. Ya'ni islomga qadar ham hindlarning Ramayana va Mahabharata kabi dostonlari malaylar orasida juda mashhur bo'lgan. Ammo mahalliy tilda arab so'zlarining o'zlashuvi bilan hinduizm va buddizm kulti o'rnini islomiy madaniyat va san'atning egallashi Malakka sultonligi madaniyatini yanada yangi unsurlar bilan boyitgan.

---

<sup>22</sup>A short history of Malaysia. Kuala Lumpur, 2003. – P. 75.

2.3-§. Vetnam. Vetnamda dastlabki davlatning paydo bo'lish tarixi ayrim ma'lumotlarda turli sanalarda ko'rsatilgan. Masalan, «Qadimgi sharq tarixi» asarida birinchi vetlar davlati miloddan avvalgi VII asrda Yanszi daryosining quyi oqimi hududida vujudga kelgan. Boshqa manbalarda yozilishicha, bu voqea miloddan avvalgi III asrning tugallanishi arafasida sodir bo'lgan. Ya'ni, Qizil daryo – Xongxadan to Xitoyning Siszyan vodiysigacha cho'zilgan hududda *Vanglang* davlati tuzilgan. Keyin uning o'rnini *Aulak* egallab, aholisi tarkibini esa «aulaklar» va aksariyati «lakiyelar» bo'lgan etnik vetlar jamoalari tashkil qilgan va ular dehqonchilik, baliqchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Lekin oradan bir asr o'tar-o'tmas *Sin* imperiyasi vetlar davlatini bosib olgach, mustaqillik uchun olib borilgan janglar oxirida xitoylar mag'lub bo'lib, so'ng *Namvet* davlati vujudga kelgan. Biroq, oradan ko'p o'tmay yana xitoyliklarning bostirib kirishi tufayli *Namvet* uch etnik hududga bo'lingan. Va faqat oradan yillar o'tgach, nihoyat, vetlar tugal ravishda tarqoqlikka barham berib, xalq sifatida birlashish va rivojlanish pallasiga kirgan.

Vetlarda qadimdan turli ibtidoiy e'tiqod shakllariga amal qilinib, ularda animizm, totemizm va shuningdek, o'tmish ajdodlar kulklariga sig'inilgan. Qolaversa, internet ma'lumotlariga ko'ra, ularda «yer ruhlari, timsoh-ajdar va suv ustida suzuvchi qushlarga ham topinish odati bo'lgan». Miloddan avvalgi III-II asrlarda, Hindiston bilan bo'lgan aloqalar bois bu yerga buddizm kirib kelgan va bu din milodning XII-XIII asrlariga borib keng tarqalgan. Xitoy madaniyatining Vetnamda yoyilishi ham aynan shu davrlarga to'g'ri keladi. Lekin shunda ham – hatto mamlakatda Buddha, Konfutsiy va Lao ta'limotlari diniy e'tiqod maqomiga ko'tarilgan vaqtda ham mavjud markazlar muzofoti va tog'lik yerlarda yashagan aholining o'z ibtidoiy e'tiqodlarida qoim qolganliklari inkor etilmaydi. Ayni shu sababdan vetnamliklarda ham xitoy, koreys va yaponlar singari, milliy mentalitet asosida ajdodlar ruhi pokiga nisbatan izzat-ehtirom ruhida munosabatda bo'lish va ularni yodda saqlash alohida mas'uliyat ma'nosida tushunilgan. Zero, «ajdodlar ruhi doim tiriklar bilan barhayot – faqat turli shaklda, xolos!».

2.4-§. Birma. Birmaning tarixiga doir adabiyotlarda uning uzoq o'tmishiga doir munosabat turlicha. Bundan farqli o'laroq, ba'zi internet ma'lumotlarida, «bu o'lkada kishilik jamiyati va davlatchilikning shakllanishi Hindi-xitoydagi umumiy taraqqiyot jarayonidan farq qilmagan»ligi ta'kidlangan. Ushbu fikrdagi olimlar o'z xulosasini paleolit va neolit davrlariga xos arxeologik topilmalar majmui asosida bayon qilgan. Binobarin, bu hududga birinchi bo'lib monxmer qabilalari joylashib, ular baliqchilik va ovchilik bilan kun kechirganlar<sup>23</sup>. Shu mavzuga taalluqli ikkinchi toifa tadqiqotchilari fikricha, «Birma o'ziga xos rivojlanish yo'li bo'yicha birorta Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga o'xshamagan» va uning birinchi aholisi «*Karen*», «*Mon*» va «*Pyu*» kabi Sharqiy Tibetdan kelgan «Tibet-Birman guruhi»ga mansub qabilalar bo'lgan. Holbuki, birinchi guruh tadqiqotchilari yozishicha, «Tibet–Birman guruhi» qabilalari Birmaga ancha kech ko'chib kelib, ularning

---

<sup>23</sup> Birma haqidagi adabiyotlar taqchilligi bois matnни тузишда асосан википедия энциклопедияси ва интернет маълумотларидан фойдаланилди.

ba'zilari Iravadi vodiysida, boshqalari esa janubiy viloyatlarda yashagan. Shuningdek, ba'zi ilmiy manbalarda qabila jamoalari orasida kichik davlatlar paydo bo'lishining birinchi sababi hindlarning ta'siri natijasi bo'lsa, ikkinchisi, xususan Birmada buddizmning qabul qilinishidan ko'rilgan.

Zikr qilingan manbalardagi ma'lumotlardan farqli o'laroq, qo'limizdagi nashrlarga ko'ra, milodning V-VIII asrlarida Birmaning markazida tibet-birman xalqi barpo etgan *Shrikshetra* davlati faoliyat ko'rsatgan. Ammo bu davlat IX asrda *Nanchjao* tazyiqi ostida tarqalib ketgan. Birmaning davlatchilik tarixida XI-XIII asrlardagi *Pagan* (yoki *Bagan*) saltanati alohida o'rin tutgan. Chunki qirol Anavratha 1044-1077-yillardagi hukmronlik davrida o'z islohotlari va harbiy sohadagi muvaffaqiyatlari bilan davlatning kuch-kudratini mustahkamlashda asosan islohotlar natijalariga suyangan. Davlatning sarhadini kengaytirish maqsadida olib borilgan janglarda asir olingan me'morlar diniy, maishiy va madaniy sohadagi qurilish ishlariga jalb etilib, u yerda shuningdek, o'n uch mingdan ziyod ibodatxonalar barpo etilgan.

Afsuski, XIII asrdagi mo'g'ullar bosqini barcha Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari singari Birmani ham o'z qamroviga olgan. Mo'g'ullar hujumi vaqtida hatto himoya vositasi sifatida ibodatxonalargacha buzilib, ularning uskunalaridan bosqinchilar yo'liga maxsus to'siqlar yasalgan, lekin foydasi bo'lmagan. Shunda Pagan davlati yo'q qilinib, Birma yana bir necha katta-kichik qirolliklarga bo'linib ketgan. Keyingi XIII-XVIII asrlar esa, Birma uchun *Inva*, *Toungu*, *Rakhine*, *Bago* va *Pyu* kabi besh qirollikning o'zaro olib borgan janglari bilan tarixda qolgan. Shunga qaramay, hatto o'zaro tarqoqlikda o'tgan yuzyilliklar jarayonida ham, XV asr boshidan Taungu qirolligi o'zining kuchayishi va ta'sir doirasini kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. Ammo keyinchalik bu qudratli qirollikning Siam bilan olib borgan bardavom urushlari, axir uni holdan toydirgan. Va Birmada yana tarqoqlik tendensiyasi hukm surib, uning asorati uzoq o'nyilliklarga cho'zilgan.

Birmadagi buddizm tarqalgan mintaqalar tarixida ta'limot asoschisining hayoti va faoliyati haqida juda ko'p turli rivoyat va voqealar qayd etilgan. Lekin bu diniy e'tiqodning Birmadagi tarixida yana shunday bir xabar saqlanib qolganki, uning qay darajada haqiqat ekanligi kishini o'ylantirmay qo'ymaydi. Ya'ni tadqiqiy manbalardan olingan internet ma'lumotlarida berilishicha, «Birmaga Buddha dini uning o'zi bilan kirib kelib, *Mandalay* shahrida jonli Buddaning o'zidan *Mahamuni* haykali yasab bitirilgach, shundan keyin yuzlab mo'jaz tillakor ibodatxonalar qurilishi boshlab yuborilgan». Qadimdan Birmada urf bo'lgan ibodatxonalar qurilishi uchun qilinadigan sarf-xarajatlar qarshisida qolgan barcha ijtimoiy masalalarga jamiyatda ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Ayrim ta'mirlanishi kerak bo'lgan ibodat maskanlari o'rniga hatto yangilarini qurish vojib sanalgan. Birmalik taqvodorlar uchun Buddha e'zoziga bunday fidoiylikning asl sababi, bu – eskirgan ibodatxonalarning yangilanishi, keyingi tug'ilishlardagi ilohiy marhamatga noillik umidvorligiga asoslangan edi. Buddizmning birmalik aholi o'rtasida keng miqyosda qabul qilinishi XI asr ma'naviy hayotida muhim voqea hisoblangan. Xususan, Pagan hukmdori *Anauratha* xuddi Hindistondagi imperator

Ashokaga o'xshab Birmada buddizmdagi hinoyana mazhabining eng yirik targ'ibotchisi bo'lgan<sup>24</sup>.

Birmada XI-XIII asrlar madaniyatning shakllanish va o'sish davri bo'lgan, deyish mumkin. Garchi mahalliy yozuv, badiiyat va san'at turlari qadimgi *mon* va *pyu* qabilalaridan tashkil topgan birmaliklarning o'z milliy mentaliteti zamirida yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu xususda shuningdek, hindlar ham ishtirok etganlar. Chunki Birmada Hindiston bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlaridan tashqari, doim mahalliy aholi orasida hinduizm e'tiqodidagi jamoalar yashagan.

Yuqoridan ma'lumki, XVIII asrdan yevropaliklarning Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi davlatlarga bo'lgan qiziqishi kuchaygan edi. Garchi mazkur mamlakatlar orasida Birma o'zining bandargohi yoki qimmatbaho dorivorlari bo'lmaganligi tufayli yevropaliklar uchun ikkinchi darajali savdo ob'yekti hisoblangan bo'lsa ham, lekin «XIX asr boshidan Birma ham Angliyaning yangi bozorlar uchun olib borgan kurashi maydoniga aylanadi. Bu vokea Birmaning so'ngi qiroli *Aloungpaya* hukmronligi yillariga to'g'ri kelgan» edi.

2.5-§. Tailand. Fanda taylarning kelib chiqishi va ularning asl vatani avval qayerda bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q, «basharti bo'lsa ham, ular sir saqlanar ekan». Tarixiy nuqtai nazardan hozirgi Tailand hududida, ilmiy taxminga ko'ra, besh ming yil muqaddam bronza asri sivilizatsiyasi boshlangan. Va monlar, kxmerlar hamda taylardan tashkil topgan jamoalar bu makonni o'zlashtirib, hosildor yerlarga aylantirganlar.

Taylarning davlatchilik xususida dastlab miloddan avvalgi III-II asrlarda *Diyen* va *Yelan* kabi qabila asosidagi nisbatan rivojlangan davlatlari bo'lgan. Bu yerda hatto xo'jalik ishlari mahalliy yozuvdagi xat-hujjat asosida olib borilgan<sup>25</sup>. Miloddan avvalgi 122-yili taylarning taqdirida muhim burilish yuz bergan – rasman yirik *Aliao* davlati tuzilgan. Garchi bu «burilish»da, yangi davlat fuqarolarining muayyan qismi janubiy Xitoyda qolgan bo'lsalar ham, ammo keyinchalik ularning asosiy qismi *laos* va *shanlar* bilan bir xalq sifatida birlashgan. Shundan so'ng, milodning IX asrida migratsiya kuchayganidan keyin paydo bo'lgan taylarning *Chiyengsen*, *Payao* va *Lanna* kabi davlatlari kxmerlarga bo'ysunsalar-da, ammo imkon qadar ularga qarshi kurashganlar. Tayland xalqlarining keyingi taraqqiyotida esa, *Sukotai* hamda *Ayutiya* davlatlari muhim rol o'ynagan.

Diniy sohada taylar azaldan ruhlarni juda e'zozlagan va bu tuyg'u hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Taylar ruhlardan rahm-shafqat, mehr-muruvvat tilab, ulardan hayiqib, g'azabiga yo'liqishdan qo'rqib yashaganlar. Shu bois ham qadimdan uylar, jamoat joylari va hatto turli idoralarda ham ruhlarga maxsus «maskan»lar yasab, bu yerda ular yemak-ichmak, chiroyli guldastalar va turli iforli unsurlar bilan siylanganlar. Mazkur milliy qadriyat maqomidagi an'analarda animistik e'tiqodga moyillik ustuvor bo'lgan. Mamlaktga buddizm kirib kelgach, Tailand aholisi orasida shuningdek, musulmon, xristian hamda konfusiyparastlar ham yashaganlar.

<sup>24</sup> История стран зарубежной Азии в средние века. – М.: Наука, 1972. – С. 305.

<sup>25</sup> История древнего востока. – М.: Высшая школа, 1970. – С. 436.

Bu o'lkada Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi kabi Buddha va uning ta'limotiga bo'lgan munosabat o'zining alohida milliy xususiyatlariga ega edi. Avvalo har bir Buddaga e'tiqod qiluvchi erkak fuqaroga o'z hayotida ma'lum muddatgacha kohinlik mas'uliyatini bajarishi shart bo'lgan. Asl kohinlar esa, faqat e'tiqod bilan band bo'lganlari uchun jamiyat hayotidagi ijtimoiy va boshqa jarayonlarda deyarli qatnashmaganlar. Tailandlik buddaparastlarda savobli a'mol masalasiga juda e'tibor bilan qaralgan. Ya'ni kimki biror kohinga sadaqa berar ekan, u o'zining kelgusi tug'ilishlarining birida albatta uning ajrini olishiga umid qilgan. Mamlakatning turli go'shalarida va hatto inson qadami yetishi mushkul bo'lgan joylarda ham ko'plab Buddha ibodatxonalarining qurilganligidan shuni bilish mumkinki, tailandliklar hayotining biror jabhasi yo'qki, unga buddizm tamoyillari yo'g'rilgan bo'lmasin, shu jumladan muayyan darajada madaniyatga ham. Lekin madaniyatda shuningdek, muqaddam e'tiqod qilingan animizm, xitoy va hind qadriyatlarining ta'siri ham kuchli bo'lgan.

Tailand an'anasi bo'yicha, madaniyat saroy ahli va oddiy avomning o'zigagina mansublikda rivojlangan. Agar saroylarda teatr san'ati, Buddha hayotiga tegishli haykaltaroshlik asarlari, hind va xitoy mifologiyasiga oid hayvonot olami tasvirlari va boshqa unsurlar bo'lsa, xalq orasida esa madaniyat tushunchasi to'qimachilik, yog'och o'ymakorligi va temirchilik – turmushda ishlatiladigan turli guldor shakllardagi asbob-uskunalar yasashdan iborat bo'lgan. Mazkur o'lka madaniyatida, aniqrog'i ma'rifiy hayotida eng muhim jihat, bu – tailandliklarning o'z iyeroglif yozuv xati edi.

2.6-§. Kambodja. Kambodjaning qisman qadim tarixini bayon etishdan oldin, shuni ta'kidlash joizki, uning rasman davlat sifatida nomlanishi va hududiga xos jug'rofiy jihatlarda hamon ayrim turli talqinlar mavjud: agar o'tgan asrning 80-yillarida chop etilgan ensiklopedik nashrlarda ushbu mamlakat – Kampuchiya Xalq Respublikasi yoki «Kxmer Respublikasi» deb qayd etilgan bo'lsa, keyingi manbalarda Kampuchiya yoki Kambodja qirolligi deb nomlangan. Shuningdek, ba'zi bir rasmiy ma'lumotlarda Kambodja faqat Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakati sifatida zikr etilgan bo'lsa, boshqa ba'zi matbuot manbalarida esa, uni Hindi-xitoy yarimoroli mamlakatlari sirasiga kiritilgan. Holbuki, Kambodja sarhadi aslida har ikki jug'rofiy hududga tegishli. Ushbu masalada yana e'tiborga molik jabhalardan biri va asosiysi – bu Kambodja qadim tarixiga taalluqli ma'lumotlarning nisbatan taqchilligi.

Aksariyat mavjud adabiyotlarda mon-kxmerlar tarixi neolit davridan boshlangan bo'lsa-da, lekin ularning keyingi tarixi milodning I-VI asrlaridagi *Funan* hamda uning shimolida VI asrda paydo bo'lib, VII asrda inqirozga uchragan *Chena* kabi davlatlari bayoni bilan chegaralangan. Va bu boradagi ma'lumotlar qamrovi ham mahalliy aholining ovchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligi haqidagi xabarlar majmuidan nariga o'tmagan. Yana, qator turfa nashrlarda shunday talqinlar ham borki, ular bo'yicha, dastlabki mahalliy davlatning shakllanishi bu yerda bronza asridan ibtido olgan. Uning taraqqiyoti o'z davri iqtisodining asosi bo'lgan qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va mo'l hosil olishda temir asbob-uskunalarining istifoda etilganligi bilan isbotlangan<sup>26</sup>.

Shu yo'sinda bayon etilgan Kambodjaning tarixi, keyinchalik IX-XII asrlarga taalluqli jarayonlar zahirida har qalay kengroq ma'noda yoritilgan. Ya'ni IX asrda Mekong deltasida vujudga kelgan «*Kambudja-dasha*» Hindi-xitoyda o'z davrining yirik davlatlaridan biri bo'lgan.

Garchi mon-kxmerlarning o'z ibtidoiy diniy tasavvurlari bo'lsa-da, ammo ularning qo'shni davlatlar, xususan Hindistonning janubiy viloyatlari bilan mavjud aloqalari bu o'lkada avval buddizm, so'ng hinduizmning tarqalishida ham o'ziga xos vosita vazifasini o'tagan. Shu yerda bir omilga alohida urg'u berish joiz ko'rinadi, ya'ni buddizmga qadar kxmerlar o'lkasida taxminan IX asrdan podshoni «yerdagi xudo» sifatida qabul qilinganligiga. Hatto podsho kultiga diniy e'tiqod maqomida sig'inilib, bo'lajak hosil taqdiri ham yerdagi xudoning qay darajada e'zozlanishi natijasi bilan hal bo'lishiga ishonilgan. Bunday sharoitda ayonki, taxt sohibining barcha oila a'zolari, qarindosh-urug'lari va albatta, din arboblari davlatda eng nufuzli mansab va martabalarga egalik qilganlar. Ammo bu azaliy an'analar Kambodjada buddizmning o'zlashuvi bilan barham topgan. Shu sababdan XIII asr kxmerlarning nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham juda sezilarli o'zgarishlar olib kirgan. Mamlakatga buddizm e'tiqodining kirib kelishi shuningdek, fuqarolarning yuqori va quyi qatlamlari o'rtasidagi tengsizlikka qarshi kurashning jonlanishi va uning ochiq yuzaga chiqishiga qulay sharoit yaratgan.

Kambodja dinlari tarixi to'g'risida gapirganda, albatta, yana bir masalaga aniqlik kiritish zarur, ya'ni diniy jarayonning madaniyat bilan mushtarak mohiyatiga. Bu jabhada shuningdek, qo'shni mamlakatlar, ayniqsa, hind madaniyatidagi me'morchilik, haykaltaroshlik, adabiyot va san'atning Kambodjada o'zlashganligi faktorini ham unutmash kerak. Ya'ni Ramayana va Mahabharata dostonlari voqealarini ibodatxonalar devorida aks etganligi yoki ayni ularga qiyosan kxmer tilida «*Riyemke*» kabi asarlarning yozilganligi, ibodatxona yoki jamoat markazlarida Shiva, Lakshmi ma'budalari haykallarini o'rnatilganligi va boshqalarni.

Bulardan tashqari, bevosita kxmer madaniyatiga xos raqs san'ati yoki soyalar teatri namoyishlari mavzui ham diniy mavzular tematikasiga asoslangan edi. Qirollarning saroyida doimo taniqli astronomlar, me'morlar, tib ilmi vakillari faoliyat ko'rsatgan va ularning erishgan muvaffaqiyatlari tegishli tarzda taqdirlangan. «Diniy, madaniy va ma'rifiy jihatdan qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, keyinchalik faqat kxmer xalqining qadriyatlariga chegarasida cheklanmadi, balki ular o'rta asrlardan qo'shni davlatlar – Tailand va Laos xalqlari madaniy hayoti rivojida ham muayyan rol o'ynadi».

2.7-§. Laos. Arxeologik topilmalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi Laos hududida qadimgi davrlardan aholi yashagan. Va mahalliy aholi ajdodlari bronza asrida rivojlangan. Taxminan milodning XIII asridan esa, Laosga sharqdan *lao* va *taylar* migratsiyasi boshlanib, ularning asosiy qismi daryo suvlari bilan sug'oriladigan vodiylarni o'zlashtirgan. Shu tariqa qabilalar tizimidan iborat

<sup>26</sup> История древнего востока. – М.: Высшая школа, 1970. – С. 282.

o‘z davrda kichik davlat shaklidagi podsholiklar paydo bo‘lgan. Ammo ular orasidagi doimiy o‘zaro to‘qnashuvlar sababli Laosda nisbatan ilk yirik davlatning vujudga kelishi faqat XIV asrdan boshlangan. Ya‘ni kxmerlarning kuchsizlanishi oqibatida *Muong-Sva* hukmdori *Fa Ngum*, nihoyat, Laosni birlashtirishga erishadi.

Hukmdorning ma‘lumotli, tadbirkor va harbiy sohadan xabardorligi Laos chegaralarini kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan qator chora-tadbirlar o‘tkazishda ish bergan. Harbiy yurishlar vaqtida mag‘lub bo‘lgan raqiblaridan boj-xiroj sifatida faqat qimmatli metallarni olinishi esa, xazinani boyitib, savdo ishlarini rivojlantirgan. Shundan so‘ng, iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli Laos hukmdori 1351-yili o‘zini «*Lan Sang* – Millionlab fillar mamlakati» podshohi deb e‘lon qilgan<sup>27</sup>. Lan Sangda monarxiya tizimi joriy etilgach, unda barcha asosiy davlat mahkamalari podsho oila a‘zolari va o‘zga yaqinlari qo‘liga o‘tgan. Bu mansab-martaba huquqi va imtiyozlaridan diniy arboblardan ham istisno emasdi. Buddha koinlarining qo‘lidagi hosildor yerlar davlat soliqlaridan ozod bo‘lganligi bois ibodatxonalarining mol-mulki ham davlat nazoratiga bedaxl bo‘lgan. Lan Sang davlati shu yo‘sinda tinchlik sharoitida o‘tgan qariyb yarim asr ichida qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yib, o‘z iqtisodiy qudratini mustahkamlashga ulgurgan. Lekin keyingi yillardagi Birmaning ketma-ket hujumlaridan so‘ng kuchsizlangan Lan Sang, raqiblarga qarshi tinimsiz va uzoq kurashlar natijasida yana o‘z milliy mustaqilligini tiklagan.

Aslini olganda, qadimdan Laosda yashagan aholining o‘z ibtidoiy diniy tushunchasi va madaniyat unsurlari bo‘lgan. Lekin taxminan XV asr boshlarida bu yerga buddizmning kirib kelishi va uning «*mahanikaya*» yoki «*dhammayut*» kabi yo‘nalishlari shakllanishi bilan 1527-yili podshoh Fatisara tomonidan barcha Buddha e‘tiqodiga tegishli bo‘lmagan mahalliy diniy maskanlar tugatilgan. Keyin mamlakatda keng miqyosda Buddha ibodatxonalarining qurilishi boshlanib ketib, ular ichida *Luan-Prabanga*, *Vat That* va *That Lung* kabi ibodatxonalar o‘z me‘moriy uslubi va savlati bilan taqvo ahli markaziga aylangan.

Laos tarixida diniy e‘tiqod va madaniyat uzviylikda rivojlangan. Bu jarayonga Hindiston, Tailand va Birmaning diniy-madaniy qadriyatlari juda kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. «Masalan, agar Buddha kalomi «*Tripitaka*»ning dastlabki matni Hindistonning janubiy viloyatlari alifbosi «*grantha*»da yozilgan bo‘lsa, so‘ng shu asosda mahalliy «*tham*» yozuvi joriy etilib, unda ham qator dostonlar yozilgan». Va dastlabki diniy mavzudagi adabiy asarlar, albatta Buddaning hayoti, faoliyati va uning shogirdlariga bag‘ishlangan. Laosdagi ibodatxonalar nafaqat diniy taqvo yoki an‘analar bajariladigan, balki ular shuningdek, aholining ijtimoiy maishiy hayoti masalalari hal qilinadigan makon vazifasini ham o‘tagan. Birma va Kambodja davlatlari kabi Laosda ham, buddizmning diniy falsafiy asoslarga yo‘g‘rilgan tartib va intizomni talab etuvchi tamoyillari, mamlakat ichkarisida barqarorlikni saqlash hamda qo‘shni davlatlar bilan ittifoqda tinch-totuv yashashga xizmat qilgan<sup>28</sup>.

<sup>27</sup> История стран зарубежной Азии в средние века. – М.: Наука, 1972. – С. 278.

<sup>28</sup> World Religions Eastern Traditions by Willard G.Oxtody. Oxford University Press. 2002. – P. 213.

Laosdagi hinayana mazhabi ibodatxonalarini o'z davrining madaniyat va ma'rifat o'chog'i hisoblangan. Masalan, o'g'il bolalar to balog'at yoshiga yetgunicha ibodatxonalarda tahsil ko'rganlar. Bu yerda Budda dini va uning matnlari bilan bir qatorda yozuv, hisob va ayrim kasb-hunar turlari ham o'rgatilgan. Adabiy manbalarda yozilishicha, «qadimgi Laos adabiyoti borasida shuni qayd etish lozimki, badiiy asarlar mavzuini, asosan, xalq og'zaki ijodi, turfa afsonalar va qisman *Lan Sang* hukmdorlarining ta'rifi – ularning shaxsiy hayoti hamda davlat oldidagi xizmatlariga aytilgan ta'rifi tahsinlar tashkil qilgan. Ibodatxonalardagi diniy matnlar kabi barcha yuksak badiiy saviyaga mansub asarlar ham maxsus kutubxonalarda saqlangan».

1.8-§. Singapur. Sharq mamlakatlarida o'tmishda aksariyat davlatlar o'z milliy xususiyati yoki dunyoqarashlariga qiyosan nom olgan. Ayni shu jihatdan Singapur – «Sher shahri» nomi ham mazmunan mazkur an'ana in'ikosi edi. Dastlab Singapur haqidagi xabar III asrga oid Xitoy manbaida eslatilgan.

Avvaldan ayonki, qaysi bir mamlakat bo'lmasin, uning bandargohidagi savdo markazlari doimo chet ellik savdogarlar nigohida o'z yurti manfaati uchun xizmat qilishi kerak bo'lgan manzil hisoblangan. Shu nuqtai nazardan Singapur ham o'z davrida savdo-tijorat rivojlangan makon bo'lib, ammo keyinchalik tanazzulga uchragan. Sababi, bu o'lka XV-XVI asrlarda Jo'xor sultonligi tarkibida faoliyat ko'rsatib, XVII asrning birinchi yarmidan portugallar xujumiga duchor bo'lgan. Shundan keyin, Britaniya Ost-Indiya shirkatining raisi Tomas Stamford Rafflz Jo'xor sultonligi bilan savdo tarmog'ini tashkil qilish va bu yerga turli etnik guruh kishilarini ishga jalb qilinishi bo'yicha shartnoma tuzgan<sup>29</sup>. Holbuki, Singapur ingliz koloniyasiga aylanganicha ham o'z tarixida yevropaliklarga qadar talay bosqinlarni boshidan kechirgan edi. Masalan, «1275-yilda Yava qiroli bosqini, 1376-yili esa, Siyam harbiy kemalari hujumi. Yoki XV asr boshlarida *Tan* davlati hukmdori Malakka kabi Singapurni ham o'z qo'l ostiga olgan edi»<sup>30</sup>.

Qadimdan Singapurda migratsiya tufayli turli xalqlar vakillari yashagan va shunga ko'ra ular turli dinlarga e'tiqod qilganlar. Garchi Indoneziya va Malayziyada asl mahalliy aborigenlardan tashqari doim son jihatdan xitoylar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsalar-da, ammo bu huddudga dastlab din va madaniyat xususida hindlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

1.9-§. Filippin. Dastlab bu yerga XVI asrning birinchi yarmida kelgan Magellan, orollarni Ispaniya tasarrufiga o'tganligini e'lon qilgan. Va shundan so'ng, Magellan izidan kelgan Lopes de Vilyalobos ekspeditsiyasi esa, orollarni Ispan qiroli Filipp II sharafiga «Filippin» deb atagan.

Arxipelagdagi orollaridan tashkil topgan bu yurtning qadim tarixi hamda aholisi to'g'risidagi manbalarda ayrim noaniqliklar – bir-biridan farq qiluvchi ma'lumotlar uchrab turadi. Aslida Filippinda turli millatga mansub jamoalarning yashab qolganligining asosiy sabablaridan biri – bu suv yo'llari orqali aholi yashaydigan ikki mingga yaqin arxipelag orollarining sharqda Filippin dengizi, janubda Sulavesi dengizi, shimolda Tayvandan ajratib turuvchi Banshi bo'g'ozini

<sup>29</sup> Основная статья: История Сингапура (ru wikipedia.org).

<sup>30</sup> The World book. Encyclopedia. 1995. – P. 626.

bilan turli mamlakatlarga «chegaradosh»ligi edi. Ikkinchisi esa, tabiiy boyliklari: tropik iqlimga xos meva chevalar, dengiz va suv ostidan olinadigan marvarid, oltin, nikel, xrom, jez va boshqalar. Holbuki, bu hududdagi qariyb yana uch mingga yaqin orollarda o'tmishda odamlar yashamagan va hattoki ularning to hozirgacha aniq nomlari ham yo'q.

Mazkur hudud tarkiban uch guruhga bo'linadi: shimolda *Luson* va uning atrofidagi orollar, markazda *Visayan* va uning atrofidagi orollar hamda janubda *Mindanao* va uning atrofidagi orollar. Zikr etilgan orollarning 66 foizi mamlakat hududiga kiradi, ularning ichida eng yiriklari: *Luson, Samar, Panay, Palavan, Negros, Mindora, Mindanao, Leyte*. Filippinlarda ilgaridan turli millat va elat jamoalaridan shakllangan o'zaro qardosh etnik guruhlar yashagan: *bikallar, bisaylar, samballar, tagallar* va boshqalar. Shu boisdan ham mamlakat aholisi aksariyati o'zaro avstroindonez guruhiga xos tillar orqali muomala-munosabatda bo'lganlar.

Diniy nuqtai nazardan Filippin o'z mintaqasida yagona xristian e'tqodi keng tarqalgan mamlakat. Ispanlarning tasarrufidan so'ng dastlabki katolik cherkovlarining qurilishi, orollar aholisi orasida xristianlik targ'iboti ibtidosining ilk amaliyoti edi. Lekin bu yerda qadimdan indonezlar, malaylar va xitoylar ham istiqomat qilib kelganliklari uchun albatta mazkur jamoalarda ularning o'z diniy e'tiqodlari ham joriy bo'lgan.

Manbalarda arablarning orollardagi savdo-tijorat ishlari va islomni targ'iboti borasidagi faoliyatlari haqidagi ma'lumotlar juda cheklangan. Masalan, «1380-yili Sebu orolida yashagan arabistonlik noib Maxdum mahalliy aholi orasida islomni tarqatish bilan shug'ullangan. Yoki Filippindagi musulmonlarning aksariyati *Mindanao* oroli aholisidan iborat bo'lgan».

Mamlakatdagi madaniy-ma'naviy hayot tarixi masalasida shuni alohida ta'kidlash joizki, arxipelag aholisi tarkiban asl mahalliy, indonez, malay va xitoy kabi millatlar hamda ispanlardan iborat bo'lganligi uchun ularning madaniyati sharq va g'arb an'analari bilan mushtarak tarzda rivojlangan. Lekin aholining 90 foizi xristian dini ma'naviyatiga doxil bo'lganligi bois, bu jarayon har qalay ko'proq Yevropa madaniyati ta'siri ostida kechgan. Mahalliy madaniyat va san'at namoyandalari ichidan talay taniqli rassom, shoir va yozuvchilar chiqqan. Ushbu yo'nalishda «Fabian de la Rosaning xalq hayoti va kundalik turmush tarzini o'zida aks ettirgan tasviriy asarlari», badiiyatdagi dostonchilik hamda qadimdan filippinliklar o'ta fidoyilik va dabdaba bilan nishonlab kelayotgan milliy bayramlarini misol keltirish mumkin.

1.10-§. Bruney. Mazkur mintaqada joylashgan mamlakatlar orasida yana shunday hududlar ham borki, ularning turli millat va elatlar vakillaridan tashkil topgan aholisi hamon o'z qadim tarixi, davlatchiligi va madaniyati asoslarini saqlab qolgan. Agar ulardan biri Bruney sultonligi bo'lsa, ikkinchisi Makao – Aomin.

Bruneyning hozircha bizga ma'lum bo'lgan tarixi ibtidosi V. Pogadayev maqolasining quyidagi ma'lumotlardan boshlanadi: «Bruney sultonligiga Avang Alak Betatar tomonidan asos solingan bo'lib, u 1363-yili islomni qabul qilganidan keyin Muhammad Shoh nomi bilan taxtga chiqqan.

Rivoyatga ko'ra, sulton muqaddam noma'lum bo'lgan daryoning dengizga quyilish joyini kashf etganida to'satdan «*Baru nah* – shu yerda!» deb qichqirib yuborgan. Shundan so'ng daryo va sultonlik sanskrit tilida «ummon yoki ummon egasi» ma'nosini anglatgan «*varun*» so'zi asosida «*Barunai*», ya'ni Bruney nomi bilan atala boshlagan ekan.

«XVI asrda Barneo va boshqa bir necha orollar hududida barpo bo'lgan sultonlikka yevropaliklar ichida birinchi bo'lib 1522-yili Fernando Magellan suzib kelgan». Sayyoh o'z safari vaqtida qoldirgan xabarlardan albatta portugallar qatori inglizlar ham foydalangan bo'lishlari kerak. Chunki keyinchalik, ya'ni «1839-yili britaniyalik Djems Bruk sultonlik taxtiga xavf solgan *dayaklar* qo'zg'alonini bostirib, o'z xizmati evaziga «roja» unvoniga muyassar bo'lgan». Malay arxipelagi tarixida «Oq rojalar» nomi bilan qayd etilgan sulola bu yerda to ikkinchi jahon urushi boshlanib Saravak yaponlarning qo'liga o'tgunicha hukmronlik qilgan. Holbuki, bu davrga qadar Bruney 1888 yili Britaniya protektorati deb e'lon qilingan edi. Bundan chiqdi, demak, mahalliy aholi qariyb yarim asr davomida inglizlar nazorati ostida yashagan.

Xulosa qilib aytganda, Janubi-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlarning eng yirigi Indoneziyadan tortib, to Bruneygacha ularning qadim tarixiga taalluqli ma'lumotlar juda taqchil. Bu holatning asosiy sabablaridan biri, bu arxipelagda joylashgan – turfa orollardan iborat mamlakatlar hududining yaxlit ilmiy muomalaga kiritishning mushkulligi bo'lsa kerak.

Tadqiqotning uchinchi yo'nalishi «Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati»ga **bag'ishlangan bo'lib, unda Xitoy va Tibet mavzuiga taalluqli ma'lumotlar berilgan.**

3.1-§. Xitoy. O'tgan asrning 80-yillaridan Xitoyda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Sharqiy Osiyoning bu hududida mutlaqo kutilmagan yangi ma'lumotlarning kashf etilishiga sabab bo'ldi. Ya'ni ayrim topilmalar faqat inson zotining paydo bo'lishi tarixiga daxldorligi bilan emas, balki ular mazmunan ikki toifadagi yo'nalishda yangi xulosalar chiqarishga imkon berdi: birinchisi, bu «yerda insoniyat tarixi muqaddam taxmin qilingan davrlardan-da avvalroq boshlanganligi tasdig'i»; ikkinchisi, «paleolit davridagi kishilar guruhining biror cheklangan hududda emas, balki Xitoyning turli go'shalarida yashaganligi tafsili».<sup>31</sup>

Bundan chiqdi, so'ngi xabarlar xulosasi xitoylarning eng qadimiy xalqlar sirasidan ekanligiga dalolat, deyish mumkin. Lekin yuqoridagi xulosa bilan bir qatorda shuni ham unutmaslik kerakki, tosh davri kishilarining dastlabki yashagan davri va makoniga doir ilmiy izlanishlarda hamon yangidan yangi ashyoviy dalillar yuzaga chiqayotganligi ham istisno emas.

Dunyoda oldin og'zaki, keyin esa yozma tarixiy adabiyotlarda istifoda etilgan «xitoy» yoki «xitoylik» atamasi, mazkur o'lkada yashagan xalqning o'z asl nomi bo'lmay, balki bu so'z qadimgi turkiylarning *kidan* (кытай) so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik shu asosda «xitoy» bo'lib ketgan.

Aslida tarixiy xitoy manbaidagi xabarga muvofiq o'tmishda xitoyliklar lug'aviy jihatdan «ulug' ma'nosida «*sya*» (*shya*) deb atalgan. Bu etnonim *Fenshuy*

<sup>31</sup> Кучера С. Древнейшая и древняя история Китая. – М.: Вост. лит. РАН. 1966. – С. 12.

daryosining quyi oqimidagi joy nomi «*sya*» toponimidan transformasiya qilingan. Va ushbu ma'lumot shuningdek, miloddan avval yashagan *Szuo Syu-min* qalamiga mansub asar hamda «*So xay*» nomli xitoy ensiklopedik lug'atida ham berilgan<sup>32</sup>.

Bu atama tarixi xususidagi ma'lumotlar ichida mustaqillik yillari nashr etilgan yana bir manba – A.Xo'jayevning «Buyuk Ipak yo'li» kitobi bayonida ham ««xitoy» atamasi hozirgi davlat va xalq nomidan kelib chiqqan emas. Chunki bu atama, qadimda hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining shimoli-sharqiy qismi bo'lmish Manjuriyada yashagan va keyin G'arbga qarab ko'chgan «*qiton*» (kidon) xalqi nomidan paydo bo'lgan».

Musulmon manbalarida ushbu atama *xitoy*, *qton*, *xatay*, Yevropa adabiyotlarida esa *catai*, *cata*, *cathai* deb yozilgan. Ammo hozirda Xitoy aholisi «*xanzu*»lar deb ataladi».

Darvoqe, «xitoy» so'zining kelib chiqishiga turkiylarning tili sabab bo'lganligi ularning tarixidan bexabar kishi uchun balki ajablanarli tuyular. Vaholanki, hozirgi Xitoy sarhadiga chegaradosh turkiylarning ham o'z davlati va chuqur ildiziga ega madaniyati hamda milliy an'analari bo'lgan. Faqat «ularning madaniyati kigiz, yog'och, charm va po'stin kabi tosh va temirga nisbatan saqlanishi qiyin unsurlardan iborat bo'lganligi uchun, g'arblik olimlar ko'chmanchi turkiylarni go'yo insoniyatning «*trutenyami*», ya'ni «tanbal» qismi deya ta'riflaganlar».

Turk xoqonligining tarixida lug'aviy jihatdan mardonavor ma'nosini anglatgan *Ashina* shaxsiyati va faoliyatining o'ziga xos o'rni bor. Gap shundaki, «Tabaslarning Shimoliy Xitoyni bosib olishi vaqtida mag'lub bo'lgan qabilalar ichida *Ashina* qo'l ostida turli urug'lardan tashkil topgan besh yuz oila bo'lgan. Xitoylar Ashinaga qarashli fuqarolarni «*Tukyu*» deb atardilar. Lug'aviy jihatdan kuchli va mustahkam ma'nosidagi «*tyurk+yut*»dan shakllangan «*to'rk*» so'zi keyinchalik qabilalar ittifoqining etnik nomiga aylanib ketgan.<sup>33</sup> Yuqorida qayd etilgan davrlarda – xitoylarning kichik knyazliklari birlashib birinchi *Sin* markazlashgan davlati paydo bo'lganida, mamlakatning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqida yashagan turkiy xalqlarning dastlabki kuchli qabilaviy ittifoqi tashkil etilgan edi.<sup>34</sup>

Agar endi Xitoy davlatchilik tizimi tarixiga chuqurroq nazar solsak, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Ya'ni aslida Xitoyda ilk davlatchilik tizimi tarixi *Yao*, *Shun* va *Sya* kabi afsonaviy podsholiklar davridan boshlangan bo'lib, ularning faoliyatiga eng mukammal milliy davlatchilikning ramzi sifatida qaralgan. Garchi bu afsonaviy podsholiklar o'rtasidagi munosabatlar haqida mufassal xabarlar bo'lmasa-da, ammo shuni ta'kidlash joizki, muqaddam tinch-totuv yashab kelgan davlatlar o'rtasida hukmronlikka erishish harakatlari kuchaya borishi sababli keyinchalik jangu jadallar jarayoni boshlangan. So'ng, o'zaro qirg'in-suronlar natijasida miloddan avvalgi VIII asr oxirida yuzdan ziyod sobiq mustaqil qabila jamoalari o'rnida rasman o'nga yaqin davlatlar yuzaga kelgan. Binobarin, tadqiqotda shu asnodda vujudga kelgan *Shan-In*, *Chjou*, *Sin*, *Xan*, *Suy* sulolalari hamda «*Uch podsholik*» hukmronlik davri tarixi va ulardan keyingi davlatlarning

<sup>32</sup> Ходжаев А. Китайский фактор в центральной Азии. – Т.: Фан, 2007. – С. 11.

<sup>33</sup> Гумилев Л.Д. Древние тюрки. М.: «Наука». Гл. ред. вост. Лит. 1967. – С. 23.

<sup>34</sup> Ходжаев А. Китайский фактор в центральной Азии. Т.: «Фан» 2007. – С. 14.

faoliyati atroflicha o'rganilgan va qiyosiy asosda xulosalangan. Biroq avtoreferat qamrovida davlatlar silsilasi tarixini to'raligicha bayon etishning iloji yo'q. Shuning uchun ushbu mavzu bayonini quyidagi davlatlar nomi va ularning sanalari haqidagi mu'lumotlar bilan boshlaymiz:

Miloddan avvalgi asrlar:

Afsonaviy *Yao* hukmronlik davri 2357–2255 y.  
Afsonaviy *Shun* hukmronlik davri 2225–2205 y.  
Afsonaviy *Sya* hukmronlik davri 2070–1600y.  
*Shan-In* sulolasi 1600–1046y.  
*Chjou* sulolasi 770–256y.  
*Sin*<sup>1</sup> sulolasi 221–206y.  
Xan sulolasi 202y. – milodiy 220 y.

Milodiy asrlar:

*Vey* sulolasi 220–265y.    *Chen* sulolasi 557–588 y.  
*Shu* sulolasi 221– 263y.    *Suy* sulolasi 581–618y.  
*U* sulolasi 222– 280y.    *Tan* sulolasi 618–907y.  
*Szin* sulolasi 265–439y.    *Besh* sulola 907–997y.  
*J-Shm.* sulolasi 420–581y. *Sun* sulolasi 960-1276y.  
*Si* sulolasi 479–501y.    *Yuan* sulolasi 12–1368y.  
*Lyan* sulolasi 502–556y.    *Min* sulolasi 1368–1644y.  
*Sin* sulolasi 1644–1911y<sup>35</sup>.

Tadqiqotda nomba-nom zikr qilingan sulolar davlatchiligi ijtimoy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti va huquqiy tamoyillari masalasi tahlilida shuningdek, «Buyuk Xitoy devori» hamda «Buyuk ipak yo'li» tarixi tafsiloti bilan ham tanishish mumkin.

Bordi-yu, endi ushbu davrlardagi joriy mafkuraga asos bo'lgan e'tiqodlar tarixi va tarkibi mavzuiga kelsak, xitoylarning ilk e'tiqodida tabiatdagi sirli kuchlarning ulug'lanishidan, ulardagi diniy tushunchaning animizmga yaqin bo'lganligini anglash qiyin emas. Chunki qadimgi xitoylar to o'zlarining rasmiy diniy e'tiqodlariga ega bo'lguncha, animatizm asosidagi «tirik tabiat» unsurlari – tog'u tosh, dengizu daryo, quyoshu shamol va shuningdek, podshohlar ajdodlarining eng dastlabki oliy vakili *Shandiga* sig'inishgan. Lekin *chjou*lar davriga kelib, mavjud ilohiy panteonda yangi g'oya ilgari surilgan, ya'ni butun samoviy ilohlarning oliysi «Osmon» va uning yerdagi o'g'li «van» – podshoh izn ixtiyorinigi ulug'ligi. Chunki xitoylik yirik teolog *Dun Chjun-shu* konsepsiyasi tavsificha, «Osmon» iloh bo'lgani uchun uning har bir xatti-harakati aniq maqsadga yo'nalgan, shu sababdan u insonning hayot yo'li oqibatlariga hukm chiqaradi: jazolaydi yoki mukofotlaydi<sup>36</sup>. Shunga ko'ra, xitoylarda «Osmon» qahriga emas, mehriga – uning mukofotiga noillik kafolati, avvalo, yuksak axloq-odob ahkomlariga rioya qilish va jamiyatdagi

<sup>35</sup> Низомиддинов Н. Қадимги Хитой тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. – Т.: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 14.

<sup>36</sup> Степугина Т.В. Идеология и культура Китая периода расцвета рабовладения (История древнего мира: расцвет древних обществ). – М.: Наука, Глав. ред. вост.лит. 1983. – С. 533.

sogʻlom barqarorlikni mustahkamlashga oʻz shaxsiy faoliyati bilan hissa qoʻshish masʼuliyatida oʻzlashgan.

Xitoylarda shu maʼnodagi «Ota va oʻgʻilning rishtasi» majozidagi eʼtiqodning joriy boʻlishida ham milliy xususiyatga taalluqli omillar – ijtimoiy-maʼnaviy etika, maʼmuriy tajriba va mistik abstraksiya ilohdan panoh izlash va tilash tuygʻusiga qaraganda ustunroq boʻlgan. Buning sababi, «Hushyor va rasional fikrlovchi xitoylik, deb yozadi taniqli rus dinshunosi L.V. Vasilyev, - hayot va oʻlim hamda boqiy dunyo sir asrorlari haqida koʻp oʻyga tolmay, u doim yetuk insoniy fazilat sohiblariga oʻxshab yashashni oʻzining muqaddas burchi deb bilgan». Bundan chiqdi, xitoylar oʻz ruhiy dunyosida gunohlar azobidan qutilish va oxirat huzur halovatini oʻylab emas, balki jamiyatda qabul qilingan munosib umrguzaronlik ramzi boʻlgan ulugʻ zotlarga oʻxshash tuygʻu bilan yashashni afzal koʻrganlar. Yoki bu oʻziga xos xususiyatni boshqacha qilib aytganda, Xitoyda juda qadimdan dunyoni diniy anglashdagi gʻayb muqaddasligi oʻrnida koʻproq insoniy komil amaliyot ruhi ustuvorlik qilgan. Negaki, «xitoylar tasavvurida ilohlar samodan yerga tushib asrlar osha maqomi yuksalib kelgan alloma va adolatli podsholar siymosida namoyon boʻlgan». Bu kabi adolatli podsholar siymosi mohiyati va talqini miloddan avvalgi soʻngi mingyillikning oʻrtalarida Konfusiy va qariya Laoning Xitoyda diniy eʼtiqod mavqeiga koʻtarilgan ijtimoiy-maʼnaviy taʼlimotlari falsafasida oʻziga xos amaliy ruhiyat kasb etdi.

Balogʻat yoshidan to oʻttiz yoshga kirguncha Konfusiy siyosat sohasi kishilari bilan suhbatlar qilib, ushbu sohalarda maʼlum maʼlumot va tajriba orttirgan paytida uning axloqiy va falsafiy dunyoqarashlari konsyepsiyasi pishib yetilgan edi. Uning konsepsiyasi tarkibiy unsurlari boʻlgan *jen* – insonparvarlik, *li* – etiket va shuningdek, podshoni eʼzozlash, moʻtadillik yoʻli, adolatli hukmdorlik, eʼtiqodda mukammallik va Osmon ixtiyori tasavvurining takomillashuvi xitoy jamiyati uchun amaliyotda qoʻllanishi joiz masʼuliyat tuygʻusida mujassamlangan.

Maʼumki, insoniyat oʻzining ilk eʼtiqod shakllaridan boshlab intuitiv yoki ongli ravishda doim oʻz ichki dunyosi – ruhiy olami sarchashmasi koʻzini ochishga intilishdan tinmagan. Agar ushbu fikrni mavzumiz falsafiy taʼlimotlari misolida davom ettirsak, «kishi umr boʻyi faqat konfusiylilik ruhida yashagan taqdirda ham, u «ruhiy diskomfort» hissiyotidan xoli qololmasdi». Bu jihatdan hozirgi atama bilan taʼriflaganda, dinning «ekzistensial funktsiya»si xitoylarda borliq va ruhiy olam, hayot va oʻlimning sir-asrorlarini ochib berishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan daosizm zimmasiga tushgan edi.

«Shunday qilib, Xitoy tafakkuri hayotda mavjud muammolarning ikki bir-biriga qarama-qarshi yechimlarini ilgari surdi, yaʼni: bir tarafdin, Lao-szi dunyoga «Oliy borliq» sirini eʼlon qilib mistik mushohadaga chaqirsa, ikkinchi tarafdin, Konfusiy dunyoviy mavjudlikni oliy qadriyat bilib, jamiyat barqarorligini uni toʻgʻri idora qilishning bardavomligida koʻrdi»<sup>37</sup>.

Dunyoning yirik diniy eʼtiqodlari tarixidan maʼlumki, har bir din oʻz sarhadidan tashqari chiqqanidan keyin undagi maʼnaviy, madaniy va maishiy unsurlar yangi mahalliy sharoitda asosan ikki – «oʻzlashuvchi» yoki

<sup>37</sup> Александр Мень. История религии: в поисках пути, истины и жизни. – М., 2001. – С. 72.

«o‘zlashtiruvchi» sifatiga yuz tutgan. Fandagi ma’lumotlarga ko‘ra, «Buddizmning Xitoyda tarqalishi taxminan milodiy I asr o‘rtalari va II asrning boshiga to‘g‘ri keladi». Ammo bu xulosa hali buddizmning Xitoydagi faoliyati boshlanishi vaqtining yagona muddati emas. Ba’zi tadqiqotlarda «Buddizmning II asrdan o‘zining mahayana yo‘nalishida Xitoyda shakllangan»ligi aytilsa, yana boshqa bir nashrda ta’limotning I asr o‘rtalarida Markaziy Osiyodan keyin Xitoyga kirib kelganligi ko‘rsatilgan. Biroq, agar hind missionerlarining tashrifidan so‘ng Markaziy Osiyoda Budda ibodatxonalarini qad ko‘tarib, III asrda esa, bu mintaqada Xitoy buddaparastlari tahsil ko‘rganlarini inobatga olganda, buddizmning Xitoyda I asrning ikkinchi yarmidan diniy e‘tiqod mavqeini egallay boshlaganligi haqiqatga yaqinroq<sup>38</sup>. Va nihoyat, bu xususda yana shunday ma’lumotlar ham borki, ularda dastlab ta’limot g‘oyalarini Xitoyda hind hamda o‘rtaosiyolik voizlar tomonidan tarqatilganligi va faqat III asrda xitoyliklar ichidan o‘z kohinlari yetishib chiqqanligi xabar qilingan.<sup>39</sup>

Tarixdan ma’lumki, ko‘p millatli mamlakatlarda qadimdan turli diniy e‘tiqod va konfessiyalarning faoliyat ko‘rsatishi tabiiy bir hol bo‘lgan. Bu jihatdan islomning Sharqiy Osiyoga kirib kelishida Xitoy ham istisno emasdi. Binobarin, ilmiy nuqtai nazardan islomning Xitoydagi tarixi 650 yili Abu Vaqqosning mazkur o‘lkaga qilgan sayohatidan boshlanib, shundan keyingi missiyalar davrida yirik mahalliy bandargohlarda dastlabki musulmon qarorgohlari paydo bo‘lgan. Lekin «Musulmon tarixiy adabiyotida esa, islomning Xitoyda paydo bo‘lishi va tarqalishi asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan hisoblanadi. Ya’ni, *An Lu-shanya* boshchiligidagi *Yunanda* ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni bostirishga Bag‘dod xalifaligining Xitoyga yordam uchun uch ming askar yuborgan vaqtdan. Va shundan boshlab «*Yun-anda* qolgan arablar mahalliy musulmonlarning Xitoyda paydo bo‘lgan dastlabki jamoalarini tashkil etganlar».

«Dastlab islom dinini qabul qilgan xitoylar, bu – son jihatdan ozchilikni tashkil qilgan millatlar bo‘lgan: *xueylar, salarlar, dunsyanlar* va *baolanlar*. Bu yerda qadimdan uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, tojik va tatar millatiga mansub musulmonlar ham yashaganlar». Xitoyda islomning tarqalishi tarixi tahlilida prof. A. Xo‘jayevning Sharqiy Turkiston hududida faoliyat ko‘rsatgan xonliklarning ijtimoiy-siyosiy va qisman harbiy faoliyati haqidagi ma’lumotlariga ham murojaat qilingan.<sup>40</sup> Tadqiqotda shuningdek, hozirgi Xitoy Xalq Respublikasidagi islom dini, uning faoliyati va tashkilotlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar berilgan.

Agar bashariyat sivilizatsiyasi ilk unsurlariga e‘tibor bersak, albatta ularning ibtidoiy diniy tasavvur va tushunchalariga bog‘liqligini ko‘ramiz. Ilk xitoy tili alifbosining paydo bo‘lishi ham manbalarda tabiat unsurlariga bog‘liq holda bayon etiladi. «Masalan, quyosh va oy, tog‘ hamda daryolar va hatto daraxtlarga ilohiy qudrat sifatida topinilgan va ular bora-bora iyerogliflarda o‘z ifodasini topgan». Shu

<sup>38</sup> Низомиддинов Н.Ф. Шаркий Осиё диний фалсафий таълимотлари ва ислом. – Т., 2001. – Б. 86.

<sup>39</sup> Кочетков А.Н. Буддизм. – М.: Наука, 1976. – С. 354.

<sup>40</sup> Ходжаев А.Цинская империя в Восточной Туркистане в XIIIв. – Т.: Фан, 1991; Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2007; Ходжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007.

tariqa «dastlabki xitoy jamoalari orasida tabiatda ko'zga ko'ringan narsalar va sodir bo'lgan hodisalarning rasimini chizishga intilgan odamlar bo'lgan. Jamoat bunday odamlarni qobiliyatini ilohiy deb bilgan va ularni «*Shi*» deb atagan».

Miloddan avvalgi XVI-XII asrlarga kelib, Xitoyda iyerogliflar rasmlar asosida chizilgan tasvirlarda aks etgan. Qisqasi, xitoy tafakkurining dunyoviy ilmlar borasidagi muvaffaqiyatlarini xalqaro miqyosdagi e'tirofi ham iyerogliflar xati sharofatidan edi, ya'ni:

«Yer o'lchash bilan shug'ullanuvchilar va astronomlar uchun «To'qqiz kitobda mujassam matematika» manbai; astronomiyada sayyora va yulduzlarning harakati yoki quyosh va oyning tutilish vaqti; kimyoda turli dori-darmonlarning bemorga ta'siri va shifosining amaliyoti; jug'rofiyada mahalliy davlatlar xaritasining tuzilishi; agronomiyada jo'yak qilib ekish, almashlab ekish, sug'orish va o'g'itlardan qachon hamda qanday foydalanish usullari; ijtimoiy fanlar yuzasidan tarix, falsafa, ma'naviyat, mafkura haqida o'nlab asarlar; tibbiyotda esa bemorlarni diyetologiya, nevrologiya, ignaterasiya, jarrohlik, duoyu afsun asosida davolash yo'llari va hokaz.

Xullas, ilm-bilim sohasidagi xitoylarning erishgan muvaffaqiyatlari asrlar osha islom dunyosida ham o'z muhim mavqeiga ega bo'lganligini Hadisi sharif marhamatidan anglash qiyin emas: «*Chin-Mochinga borsang ham ilm o'rgan*».

3.2-§. Tibet. Tibet jug'rofiy jihatdan ikki ko'hna madaniyat maskanlari bo'lgan Hindiston va Xitoyning o'rtasida joylashgan. Tibetliklarning kelib chiqishi haqidagi muxtasar ma'lumot shuki, ularning ajdodlari miloddan avvalgi IV asrda Hindistondan Tibetga ko'chib o'tgan. Balki keyingi assimilyasiya tufayli bo'lsa kerak, tibetliklarning tili birma va xitoy tillariga ancha yaqin. Tibetning mifologiyaga asoslangan tarixi uning birinchi podshosi *Nyati-szanponing* osmondan tushishi bilan iloh sifatida e'zozga noil bo'lishidan iborat. «Tibet to'g'risidagi mifologik ma'lumotlardan tashqari, Ptolemey asari va xitoyliklar yozib qoldirgan matnlarda ham bu o'lka haqida ba'zi xabarlar uchraydi».\

«VIII asrning ikkinchi yarmi va IX asrda Tibet qudratli davlatga aylanib, uning hukmronlik doirasi O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning viloyatlari, shimolda *tangutlar* qabilasi hududi, sharqda Xitoyning *Si chuan* viloyati va G'arbda *Tan* imperiyasiga tegishli to'rt viloyatni ham o'z ichiga olgan». Bu davrda Tibet iqtisodiy jihatdan juda jadal rivojlanib, atrofdagi davlatlar bilan aloqalari mustahkamlangan. Va mazkur aloqalar o'z o'rnida mahalliy madaniyatning yuksalishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Tibetga kirib kelgan buddizm o'z tarixida Xitoydagi kabi o'ziga xos tanazzul va taraqqiyotlar jarayoniga duch kelgan. Lekin oxir oqibatda buddizm rasman davlat institutlari sirasiga kirishga muvaffaq bo'lgan. «*Lama*», ya'ni «eng yuksak» degan ma'noda kohinni ulug'lovchi lamaizm tarixi V va VI asrlardagi Shimoliy Hindiston aholisining qo'shni hududlar qatorida qisman Tibetga ko'chib kelishi davridan boshlangan. To'rt tarafdin tog' tizmalari bilan o'ralgan bu chekka o'lkada yangi dinning qaror topishidan muqaddam yarim demonizm va shamanizmga asoslangan «*Bonpo*» e'tiqodi mavjud bo'lib, mazkur diniy tushuncha hatto lamaizm dinida ham o'z ta'sirini yo'qotmagan.

Budda ta'limotining Tibetdagi ushbu yangi lamaizm yo'nalishi tarkiban tibetliklar e'tiqodidagi animizm unsurlari, hinoyana va mahayananing asoslari hamda «tantrizm»ga xos tamoyillar majmuidan iborat bo'lgan. Lamaizm ta'limotining ruhoni ramzi tibetlik Dalay Lamaning kulti va vakolati hisoblangan.

Lamaizmga xos «oq xayrli amallar»da saxiylik, haqiqatgo'ylik, rahmdillik, tinchliksevarlik, aql-zakovat, poklik, beozorlik, murosasozlik, o'zgalarni himoya qilish, ta'limotni tugal egallash singari komil insoniy fazilatlar mujassamlangan. Bu kabi diniy va dunyoviy nuqtai nazardan insoniy takomillik tamoyillari lamaizm adabiyotidagi «Go'zal hikmatlar» nomli to'plamlarda she'rga solingan:

*Faqat tentak so'zlaydi o'z iqtidoridan,  
Ongli esa so'z ochmaydi yo'g'u boridan.  
Xas odatan suzib yursa suvning ustida,  
Marvarid-chi, yashirinar suvning ostida.*

**Tadqiqotning to'rtinchi yo'nalishi ham «Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati»ga bag'ishlangan bo'lib, unda Koreya va Yaponiyaga doir ma'lumotlar bayon qilingan.**

4.1-§. Koreya. Koreya tarixi haqidagi mavjud ma'lumotlarni hatto hozir ham aniq va mufassal deyish qiyin. Chunki biz tanishgan koreys va xorijiy nashrlarda yer kurrasining bu go'shasida o'tgan tosh asridan to keyingi davrlarga doir ilmiy xulosalarda hali ham o'zaro ziddiy talqinlar uchrab turadi. Shu bois Sharqiy Osiyodagi bu yirik yarimorolning tarixini aniqlash xususidagi asosiy savollardan biri – bu shuki: «Yarimorolda qachondan odamlar yashay boshlagan va ular kimlar edi?».

O'tgan asrning 60-yillaridagi ma'lumotlar bo'yicha, yarimorolda odamlarning yashaganligi neolit davridan taxmin qilinadi. Holbuki, bundan muqaddam, ya'ni 1933 yili yaponlar ham *Tedongan* daryosining yuqori oqimidagi *Tengvanchjin* degan joyda neolit davri jonivorlari va ba'zi bir ish qurollari borligini aniqlagan edilar, lekin bu topilmalarni ular sir tutganlar<sup>41</sup>. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, adabiyotlarda yozilishicha, yaponlar o'z madaniyatining koreyslar madaniyatiga nisbatan qadimiy ekanligini ko'rsatish bo'lgan. Nihoyat, XX asrning so'ngi choragidan Koreyada olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida nainki neolit, balki hatto o'rta paleolit davrida yarimorolda yashagan odamlar hayoti va faoliyatiga doir unsurlar borligi aniqlangan.

Bordi-yu, bu xulosaning mag'ziga yanada chuqurroq kirib borsak, qachonlardir koreyslar ajdodlarining nima sababdan kindik qoni to'kilgan yerni tark etib, iqlimi iliq joy topish maqsadida Sibir va Manjuriyaning bepoyon kengliklarini bosib o'tganliklarini anglash qiyin emas. Sababi, koreyslarning ixtiyor etgan yangi vatani – u chog'da noma'lum yarimorol, ular uchun avvalgi manzil-makonlariga nisbatan bamisoli jannatning o'zi edi!

---

<sup>41</sup> Курбанов С.О. История Кореи: с древности до начало XXI века. СПб.: Изд-во С.Петербургского университета, 2009.

Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, o'rta va so'ngi neolit davrida yarimorolga kirib kelgan odamlar etnik jihatdan Shimoliy Xitoy aholisi bo'lgan tunguslarga yaqin edilar. Shundan kelib chiqib xulosa qilganda, demak, shimoliy xitoyliklarning ajdodlari yarimorolga dehqonchilik madaniyatini olib kelgan bo'lishlari kerak. Lekin «Rossiya olimlari tomonidan ilgari surilgan yana shunday bir yo'nalish ham borki, unga ko'ra, koreyslarning qadimgi ajdodlari janubiy polineziya xalqlaridan tarqalgan».

Hozirga qadar Shimoliy va Janubiy Koreya arxeologlari tomonidan Koreya yarimorolida paleolit davriga tegishli 50 dan ortiq manzilgohlar aniqlangan bo'lib, ularda o'sha davrda yarimorolda yashagan odamlarning hayotini o'rganish uchun yetarli ma'lumotlar uchraydi. Koreyslarning kelib chiqishi xususidagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda yana shunday ilmiy nazariy xulosalarni qayd etish mumkin. Ya'ni, «antropologik va lingvistik tadqiqotlar hamda og'zaki xalq ijodi dalolat berishicha, koreyslarning Oltoy tog'lari va ularga chegaradosh O'rta Osiyo hududidagi xalqlar bilan ildizlari bir. Binobarin, «koreyslar etnogenezida Oltoy tog'lari hududi va Markaziy Osiyoga tutash hududlarda yashagan qabilalar ham ishtirok etganlar».

Miloddan avvalgi II asrda Koreyada paydo bo'lgan *Chinxan* xonligi tarkibida 10 ta kichik qabila-davlatlar ittifoqi faoliyat ko'rsatgan. Xonlik iqtisodining asosiy manbai bo'lgan dehqonchilik qatorida ipakchilik va to'qimachilik sohalari ham rivojlangan. *Chinxan* tarkibidagi *Saro* qabila-davlati o'z atrofidagi qabilalarni tasarrufiga olib, keyinchalik borib mustaqil davlat maqomiga erishgan. Muqaddam tarkiban 12 qabila-davlatdan iborat *Pyonxan* o'z ittifoqchilaridan ayrilgach, *Kay* davlati bilan ittifoqda V-VI asrlargacha faoliyat ko'rsatgan. Shu tariqa *Mahan*, *Pyonxan* va *Chin-xandan* iborat «Uch xonlik» negizida Koreys yarimorolida birin-кетин yirik davlatlar vujudga kelgan. Buni o'z davrining birinchi davlati bo'lgan – «tong» yoki «toza» ma'nosidagi, «*chao*» so'zidan olingan Choson misolida ko'rish mumkin.

Ushbu Choson davlatining vujudga kelishida uch xil nazariya mavjud:

«Birinchi nazariya bo'yicha, Choson hozirgi Xitoyning *Lyaonin* provinsiyasida joylashgan edi. Chunki uning poytaxti Xitoy devori yaqinida bo'lganligi va bu e'tirofning tasdig'i arxeologik topilmalar asosida qayd qilingan.

Ikkinchi nazariya tarafdorlari Chosonni Koreys yarimorolining shimolida barpo topgan, deb hisoblaydilar. Ya'ni, ilk yirik koreys davlatini faqat va faqat Koreya yarimoroli hududida paydo bo'lgan deb.

Uchinchi nazariyani yoqlaganlar yuqoridagi har ikki ma'lumot majmuidan go'yo masalaning to'g'ri yechimini topganlar, ya'ni Choson poytaxtining bir yerdan ikkinchi yerga ko'chirilganligi omilidan».

Choson davlati tarixining yana boshqa bir talqinida uning asl nomi «*Gojoseon*» bo'lgan, ya'ni «Qadimgi choson». «*Xan*» degan nom esa *Gojoseon* podshohining janubiy chegaralar tomon yurishi natijasida paydo bo'lgan va miloddan avvalgi II asrdan Chosonni «*Xan* podsholigi» deb atay boshlaganlar. Holbuki, koreyslar o'zlarini aslida *Gojosean* podsholigidan tarqalganmiz deb biladilar<sup>42</sup>.

---

<sup>42</sup> Korean history for international readers. Seoul, 2010. – P. 28.

Koreya davlatchilik tarixida Chosondan keyingi Koguryo davlatining vujudga kelishi muhim voqea edi. Chunki to Koguryo davlat sifatida shakllanishiga qadar uning aholisi *Xan* daryosi qirg'oqlarida Xitoy tasarrufidan ozod qabila tizimida yashaganlar. Bu davlat o'zining ming yillik faoliyati davrida o'z vatani xalqini birlashtirish hamda uning iqtisodiy qudrati va harbiy salohiyatini mustahkallashga harakat qilgan. Shuningdek, I–II asrlarda Koguryoda qabila jamoasi tugatilib monarx hukmronligi to'la-to'kis qaror topgan. III asrning o'rtalarida dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari davlat nazoratiga o'tishi bilan Pekcheda yanada davlatchilik tendensiyasining kuchayishi kuzatilgan. Uning davlatchilik asosini 12 mavqega ega mulozimlardan iborat bo'lgan harbiy va boshqa zodagonlar byurokratik apparati tashkil qilgan. Davlat tarkibidagi mansab-martabali zotlarning aksariyati harbiy sohaga taalluqli bo'lishi shart ekanligi, yarimorolning ichki va tashqi dushmanlari bilan tez-tez bo'lib turadigan to'qnashuvlar tufayli edi.

Iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchaygan Pekche IV asrning ikkinchi yarmidagi shimolga qarab yurishida Koguryo bilan to'qnashib uni mag'lub etgan. Oradan bir yil o'tgach dushmanga qarshi jang maydoniga chiqqan Koguryo 377 yili ikkinchi to'qnashuvda ham o'z markazini qo'ldan boy bergan<sup>43</sup>.

Birin-sirin harbiy yurishlarda erishilgan muvaffaqiyatlarning zamirida mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik yetakchi omil sifatida xizmat qilgan. Chunki janubi-g'arbiy hudud qabilalarini o'zida jamlagan ittifoq, dehqonchilik asosi bo'lgan sholikorlikda qo'lga kiritilgan boy hosildorlik va unga qo'shimcha tarzda rivojlangan to'qimachilik hamda qurol-yarog'lar ishlab chiqarish sur'atlarining o'sib borishi davlatning yarimoroldagi tutgan mavqeini nainki saqlash, balki uning mustahkamligini ham ta'minlagan. Pekche davlati haqida «*Samguk yusa*» tarixiy manbaida yana qator turli voqea va xodisalar rivoyat qilingan.

Pekchedan keyingi ijtimoiy siyosiy hayotda yuz bergan eng muhim voqea, bu – koreslarning birlashuviga xizmat qilgan davlatga asos solinishi edi. O'z tarkibida *yansan*, *koxo*, *chinji*, *kari* va *kaya* kabi qabilalar birlashuvidan vujudga kelgan «Birlashgan Silla» davlati, tarixan koreyslar birligi va mustaqilligini ifodalagan saltanat edi.

Koreys yarimorolida topilgan it, ayiq yoki toshbaqa ramzlari qadimda mahalliy aholining fetishizm va totemizm asoslariga e'tiqod qilganliklarini bildiradi. Chunki koreyslar nazdida odam vafot etganidan keyin totem jonivorlariga aylanishiga ishonilgan. Bu ma'nodagi an'analar ayniqsa dafn marosimida o'z yorqin ifodasini topgan. Shu jihatdan o'tmishda «koreys xonadonlarining hayvonlar nomlari bilan atalishi ham mifologik e'tiqodning hayotiy isboti» edi.

E'tiqod masalasida koreyslarning dunyoqarashlarining qadimdan xitoylarga yaqin ekanligi keyinchalik o'z amaliy ta'sirini ko'rsatgan, ya'ni Koreyada birin-кетин konfusiylilik va daosizm diniy e'tiqodlarining o'zlashuvida. Koreyaga buddizmning kirib kelishi tarixi esa, koreys nashrlarida qayd etilgan ma'lumotda shunday o'z aksini topgan: «Budda dunyodan ko'z yumganidan keyin bir asr o'tgach, imperator Ashoka «*dharma* e'tiqod» targ'iboti uchun maxsus o'nta guruh tuzib, ularga bu diniy e'tiqodni Shri-Lankadan to Yunonistongacha tarqatishni

---

<sup>43</sup> Корея в период трех государств. История Вотока. II. – М.: Вост. литература РАН. 2000. – С. 85.

buyurgan. Shu tarzda *dharma* «Ipak yo‘li» orqali avval Xitoyga va undan keyin Koreya yarimoroliga kirib kelgan».

Agar XIV-XV asrlardagi konfusiylilik va buddizmning Koreyadagi ahvoli va mohiyatiga doir muammoga yuzlansak, quyidagi holatlarga duch kelamiz. Ya‘ni, avval buddizm keyin konfusiylilik jamiyat hayotining diniy va siyosiy kabi ikki yo‘nalishiga ta‘sir ko‘rsatgan. Ammo goho bu holatning aksi ham kuzatilgan. Masalan, konfusiylilik tarafdori bo‘lgan *Li Songening* hokimiyat tyepasiga kelishi buddizm tarafdorlarini quvg‘in qilinishining boshlanishidek tuyulgan edi. Sababi, «Budda ibodatxonalarining katta yerlarni o‘z tasarrufiga olganligiga qarshi chiqqan konfusiylilik oppozitsiyasi, keyingi sulolalarning almashish davrida yuz bergan turli siyosiy voqealar yo‘nalishidagi ma‘naviy ustuvorligi hisobiga kuchaygan edi».<sup>44</sup> Lekin *Li Son-ge* 1393-yili janubi-sharqiy Koreyadagi 802-yili asos solingan eng yirik buddizm ibodatxonasini qayta ta‘mirlashga buyruq bergan. U o‘zining hukmronligi davrida buddizm ibodatxonalariga yer ajratilishini ham ta‘qib etmagan.

Koreyaga xorijiy diniy e‘tiqodlar qatorida islomning kirib kelishida hind va xitoylarning savdo-tijorat faoliyati muhim rol o‘ynagan. Chunki ularning orasida musulmonlar ham bo‘lgan. Agar bu jarayonda muqaddam Hindiston va Xitoy bilan savdo aloqalarida bo‘lgan arablarni inobatga olganda, ularning Koreyaga tashrifini quyidagi IX asrga doir arab dengizchiligi hujjatida yozilgan ma‘lumotdan anglash qiyin emas:

*«Xitoy ortidagi dengizning narigi tarafidagi tog‘lik yerlarda oltinga boy Silla mamlakati bor».*

